

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

MAGISTRATURA BO‘LIMI
BOSHLANG‘ICH TA‘LIM KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida

UDK_371.044.2.

5A110701 –Ta‘lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang‘ich ta‘lim) mutaxassisligi
magistranti

KELDIYOROVA VAZIRA BOTIROVNA

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARI OBRAZLI TAFAKKURINI
SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA TEXNOLOGIK ASOSLARI

Mavzusidagi magistr akadem darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: p.f.n., dots. Oripova N.X

QARSHI –2019

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA OBRAZLI	
BOB TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI	
1.1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida obrazli tafakkurni shakllantirish pedagogik muammo sifatida.....	8
1.2. Tafakkur jarayonlari va uning shakllanish bosqichlari.....	14
1.3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida obrazli tafakkur shakllanganligining mavjud holati.....	25
1.4. Bob yuzasidan xulosalar.....	35
II BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARI OBRAZLI	
BOB TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING TEXNOLOGIK ASOSLARI	
2.1. Xalq og‘zaki ijodi- o‘quvchilar obrazli tafakkurni shakllantirish manbai sifatida.....	36
2.2. Kreativ metodlar asosida o‘quvchilar obrazli tafakkurini shakllantirish metodikasi.....	49
2.3. Integrasiyalashgan darslar vositasida obrazli tafakkurni rivojlantirish usullari	55
2.4. Bob yuzasidan xulosalar.....	63
III O‘QUVCHILAR OBRAZLI TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH	
BOB JARAYONINING PEDAGOGIK TAHLILI	
3.1 Tajriba-sinov ishlarining tashkil etilishi va uning samaradorlik darajasi.....	64
3.2 Bob yuzasidan xulosalar.....	79
XULOSA VATAVSIYALAR.....	80
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	83
ILOVALAR.....	85

Kirish

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi vadolzarbligi. Buguni kunda jahon hamjamiyatida ta'lim sohasiga e'tibor har qachongidan ham kuchayib bormoqda. Rivojlangan mamalakatlarning ta'lim sohasidagi tajribalarini o'rganib, tahlil qiladigan bo'lsak, ularning rivoji hissasiga har tomonlama yetuk, intellektual salohiyatli, kreativ fikrlovchi, yangiliklarga intiluvchan, vatanparvar, o'z sohasining yetuk bilimdoni bo'lgan kadrlarning o'rni kattadir. Shu boisdan ijodkor, kashfiyotchi kadrlarni tayyorlash borasidagi chet el tajribasini o'rganar ekanmiz ta'limning asosiy poydevori bo'lmish maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yoshdagi bolalarda tafakkur turlarini shakllantirish borasidagi ilmiy-amaliy yutuqlarni ta'kidlab o'tish joiz. Xususan, Germaniyaning eng rivojlangan mamalakatlar ro'yixatida turishiga sabab ham maktabgacha ta'limni "Tafakkur ustaxonasi" deb qarashlari bo'lsa ajab emas.

Mamalakatimizda ham ta'lim sohasida keng ko'lamdagi islohotlar olib borilmoqda. Davlatimiz rahbarining farmoniga muvofiq 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi belgilab olindi. Uning "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" deb nomlanuvchi to'rtinchi yo'nalishida ham umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oiliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi. Davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan bu kabi e'tibor va islohotlar natijasi o'laroq bugungi kun pedagoglarining zimmasiga yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifa yuklandi.

Butun dunyoni qamrab olayotgan globalizatsiya jaroyoni inson ongi va tafakkuriga bevosita o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Kundalik moddiy hayotini yaxshilash va qulaylashtirish uchun yaratilgan barcha texnologiyalar insonni ham aqlan, ham jismonan kam kuch sarflashga, buning natijasida ayniqsa kichik yoshdagi bolalar, maktab o'quvchilarida tafakkur rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ularning jismoniy va aqliy o'yinlardan ko'ra virtual o'yinlarni afzal ko'rayotganlari bunga yaqqol misoldir. O'quvchilarning ongini o'stiradigan, aqlini charxlaydigan, tafakkurini yuksaltiradigan, ijodkorlik qobiliyatini shakllantiradigan,

mustaqil fikralshga o'rgatadigan zamonaviy metodlardan foydalanish lozimki, bu metodlar boshlang'ich sinf o'quvchilarda ta'lim olishga nisbatan motiv hosil qilish bilan birga, ta'lim-tarbiya berishi, ularning qobiliyatlarini nomoyon etishi lozim.

Yurtimiz kelajagi, xalqimiz, mamlakatimizning intellektual salohiyatiga, aql-zakovatiga, milliy ta'lim-tarbiya tizimini jahon andozalari asosida takomillashtirish, ta'lim tizimini yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilishga, kadrlar tayyorlashga bevosita bog'liq. Yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan barkamol tashkilotchi va zukko kadrlarga ega bo'lishi uchun avvalo ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish, uni hozirgi davr talabi darajasiga ko'tarish zarur va muhimligini hayot taqozo etyapti. Bunda o'quvchilarning tasavvurini boyitadigan, dunyoqarashini kengaytiradigan, o'zida ishonch o'yg'otadigan, mustaqil fikrlashga, ijodkorlikka, qobiliyatini nomoyon etishga chorlaydigan usullardan, ya'ni kreativ metodlardan foydalangan holda ularda obrazli tafakkurni shakllantirish ahamiyatlidir. Obrazli tafakkuri yaxshi shakllangan o'quvchining xayolot dunyosi keng, fantaziyasi kuchli, ixtirochilik, ijodkorlik qobiliyati yuqori bo'lib ulardan ixtirochi olimlar, yaxshi rassom, adabiyotshunos, umuman olganda yaratuvchan ijodkorlar tong ma'noda barkamol shaxslar yetishib chiqadi. Barkamol shaxs tushunchasi tarixiy ahamiyatga ega bo'lib, o'z davrining komil insoni hisoblanadi. Barkamol shaxs hamisha o'z Vatani kamolotini rivojlantiradi, uning ravnaqi yo'lida umrini baxshida etishni o'z burchi deb biladi. Demak, sog'lom yoshlar har qachon, har yerda o'z fikriga, sog'lom mulohazasiga ega bo'ladi, xalq va davlat manfaatini himoya qiladi. Uning aql-zakovati, intellekti, teran dunyoqarashi orqali o'z maqsadiga erishish yo'llarini qidirib topadi. Bugun o'z mustaqil fikriga ega, izlanuvchan, tashabbuskor, intellektual salohiyati yuksak kadrlargina dunyoga tanitadi, uning rivojiga hissa qo'sha oladi. Bularning barchasini inobatga olgan holda, biz ushbu tadqiqot ishimizda boshlang'ich sinf o'quvchilarining obrazli tafakkurni shakllantirish dolzarb masalalardan deb topdik.

Yuqoridagi fikrlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari obrazli tafakkurini shakllantirish muammosi bugungi kunda yetarlicha

hal etilmagan muammo bo‘lib kelmoqda. Ana shu muammoni nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish maqsadida ilmiy tadqiqot mavzusini **“Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari obrazli tafakkurini shakllantirishning pedagogik va texnologik asoslari”** deb nomladik.

Tadqiqotning obyekti: o‘quv-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning obrazli tafakkurini o‘stirish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti: boshlang‘ich sinf o‘quvchilari obrazli tafakkurini shakllantirishning mazmuni, shakllari va vositalari.

Tadqiqotning maqsadi: boshlang‘ich sinf o‘quvchilari obrazli tafakkurini shakllantirishning nazariy-amaliy asoslarimohiyatini o‘rganish va tahlil qilish asosida ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

- Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining obrazli tafakkurini shakllantirish pedagogik muammo ekanligini ilmiy asoslash;
- Tafakkur jarayoni, uni shakllanish bosqichlarini o‘rganish;
- Xalq og‘zaki ijodi asosida obrazli tafakkurini shakllantirish yo‘llarini ishlab chiqish;
- Kreativ metodlar – boshlang‘ich sinf o‘quvchilari obrazli tafakkurini shakllantirish omili ekanligini ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berish;
- Integrsaiyalashgan darslarning o‘quvchilar obrazli tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyatini ochib berish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining obrazli tafakkurini shakllantirish pedagogik muammo ekanligi tahlil qilindiva ilmiy asoslandi;

- Tafakkur jarayoni, uning shakllanish bosqichlari o‘rganildi;

- Xalq og‘zaki ijodi asosida obrazli tafakkurini shakllantirish yo‘llari ishlab chiqildi;

- Kreativ metodlar – boshlang‘ich sinf o‘quvchilari obrazli tafakkurini shakllantirish omili ekanligi ilmiy-amaliy jihatdan ochib berildi;

- Integratsiyalashgandarslarning o'quvchilar obrazli tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati asoslandi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari:

- ✓ boshlang'ich sinf o'quvchilarining obrazli tafakkurini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi muhim manba ekanligi ilmiy jihatdan asoslansa;
- ✓ kreativ metodlar asosida o'quvchilarning obrazli tafakkurini shakllantirishning nazariy jihatlari ishlab chiqilsa;
- ✓ integratsiyalashgan darslarni tizimli ravishda qo'llanilsa kutilgan samaradorlikka erishish mumkin.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili). Ushbu masalaning o'ziga xos pedagogik talqini dastlab xalq pedagogikasi namunalarida mujassamlashgan bo'lib, ular: maqol, rivoyat, afsona, ertak, doston, qo'shiq va boshqalarda namoyon bo'ladi. Masalan, birgina afsona va ertaklar misolida ushbu muammoning naqadar mohirona tasvirlanganligini ko'rishimiz mumkin. "Ochil dasturxon", "Uchar gilam", "Ur to'qmoq", "O'zi yurar etiklar", "Oynajahon" kabilarni obrazli tafakkur mahsuli desak bo'ladi.

A.G. Maklakov [33;36], B.C. Muxina [34;315] va boshqalar ko'rgazmali obrazli tafakkurning psixologik jihatlarni tadqiq etishgan bo'lsa, M.M. Bezrukix [27;256], L.S. Vigotskiy [29;245], kabi rus olimlari kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning obrazli tafakkurini shakllantirishning nazariy-amaliy asoslarini izchil tahlil qilganlar.

Bu boradagi tahliliy pedagogik ilmiy tadqiqotlarni I.S. Yakimanskiya [39;162], P.Y. Galperin [30;315], A.B. Zaporozets [30;315] kabi olimlar ham olib borganlar. Ularning tadqiqotlari natijasida kichik maktab yoshidagi bolalarning obrazli tafakkurini interaktiv metodlar, nutqiy o'yinlar va o'quv tarbiya jarayonini tabiat bilan bog'lagan holda olib borish yordamida shakllantirish mumkinligini ko'rsatilgan. A.A. Lyublinskaya [10;174] boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkuri to'g'risidagi ma'lumotlarida ularida mazkur jarayonning rivoji ko'p jihatdan analitik sintetik faoliyatiga bog'liq ekanligi ko'rsatib o'tiladi. u yosh

davrlarida yaqqol-harakat, yaqqol obrazli va soʻz mantiq yoki nazariy tafakkur bosqichlarini bosib oʻtish toʻgʻrisida mulohaza yuritadi.

Ushbu masalaning psixologik talqini oʻzbek olimlaridan M.Davletshin[16;186], E.Gʻoziyev[10;174], A. Jabborov[16;205],P.I.Ivanov[14;186], Z. Nishonova[20;138], V.M.Karimova [16;205],kabi olimlar tomonidan atroflicha oʻrganilgan va tahlil qilingan.

Tadqiqotda qoʻllanilgan metodikaning tavsifi:Nazariy tahlil, kuzatish, suhbat, psixodiagnostik test, pedagogik eksperiment, pedagogik tajriba natijalarini matematik-statistik tahlil qilish.

Tadqiqotning nazariy amaliy va ahamiyati:Pedagogika nazariyasi va boshlangʻich taʼlim jarayoni oʻquvchilarda obrazli tafakkurni shakllantirish borasidagi nazariy qarashlar va yondashuvlarga ega boʻldi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida obrazli tafakkurni shakllantirishning usul va metodlari ishlab chiqildi. Qaysikim, ushbu metodika va nazariy qarashlardan boshlangʻich sinf oʻquvchilari, kadrlar malakasini oshirish tinglovchilari foydalanishlari mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi: kirish, 3 bob 7 paragraf, boblar boʻyicha xulosalar, umumiy xulosa va tavsiyalar, hamda foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat boʻlib, uning hajmi 90 sahifani tashkil etadi.

I BOB. BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARIDA OBRAZLI TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

1.1. Boshlang‘ich sinflar o‘quvchilarida obrazli tafakkurni shakllantirish pedagogik muammo sifatida

Ushbu muammoni tadqiq etar ekanmiz, dastlab uning tarixiy ildizlariga nazar tashladik. O‘rganilgan manbalar tahlili shundan dalolat berdiki, yosh avlod obrazli tafakkurini rivojlantirish ilk bor xalq pedagogikasi namunalari ko‘zga tashlanadi. Ular asosan xalq og‘zaki ijodi namunalari: maqol, rivoyat, afsona, ertak, doston, qo‘shiq va boshqalarda ifodalanadi. Masalan, birgina ertaklar misolida ushbu muammoning naqadar mohirona tasvirlanganligini ko‘rishimiz mumkin. Xalq ertaklarida sehrlilik, sehrlilik, sehrlilik va g‘a‘royib hislatga ega bo‘lgan odamlar, ularning ko‘z ko‘rib quloq eshitmagan g‘a‘royib sarguzashtlari hikoya qilinadiki, mohirona o‘ylab topilgan bu voqealardan beihiyor lol qolish mumkin. Ertaklarda o‘ylab topilgan “Ochil dasturxon”, “Uchar gilam”, “Ur to‘qmoq”, “O‘zi yurar etiklar”, “Oynajahon” kabilarni obrazli tafakkur mahsulini desak bo‘ladi. Bu xalqning naqadar ijodkorligi, boy tasavvuri, yaratuvchanligi va obrazli tafakkuri yuqori darajada rivojlanganligidan dalolatdir.

A.G. Maklakov [33;36], B.C. Muxina [34;315] va boshqalar ko‘rgazmali obrazli tafakkurning psixologik jihatlarni tadqiq etishgan bo‘lsa, M.M. Bezrukix [27;256], L.S. Vigotskiy [29;245], kabi rus olimlari kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning obrazli tafakkurini shakllantirishning nazariy-amaliy asoslarini izchil tahlil qilganlar.

Bu boradagi tahliliy pedagogik ilmiy tadqiqotlarni I.S. Yakimanskiya [39;162], P.Y. Galperin [30;315], A.B. Zaporozets [30;315] kabi olimlar ham olib borganlar. Ularning tadqiqotlari natijasida kichik maktab yoshidagi bolalarning obrazli tafakkurini interaktiv metodlar, nutqiy o‘yinlar va o‘quv tarbiya jarayonini tabiat bilan bog‘lagan holda olib borish yordamida shakllantirish mumkinligini

ko'rsatilgan. A.A.Lyublinskaya[10;174] boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkuri to'g'risidagi ma'lumotlarida ularda mazkur jarayonning rivoji ko'p jihatdan analitik sintetik faoliyatiga bog'liq ekanligi ko'rsatib o'tiladi.u yosh davrlarida yaqqol-harakat, yaqqol obrazli va so'z mantiq yoki nazariy tafakkur bosqichlarini bosib o'tish to'g'risida mulohaza yuritadi.

Ushbu masalaning psixologik talqini o'zbek olimlaridan M.Davletshin[16;186], E.G'oziyev[10;174], A. Jabborov[16;205],P.I.Ivanov[14;186], Z. Nishonova[20;138], V.M.Karimova [16;205],kabi olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan va tahlil qilingan.

Yuqoridagi tahlilga ko'ra shuni ta'kidlash joizki, kichik maktab yoshidagi bolalar obrazli tafakkurini rivojlantirish masalasi yaxlit pedagogik jarayon sifatida tadqiq etilmagan.

Bizga ma'lumki, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning tafakkuri mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, hukm va xulosa chiqarish, taqqoslash, tahlil qilishning turli usullarini qo'llashdek o'ziga xos xususiyatlari bilan maktabgacha yoshdagi bolalardan farq qiladi. Ya'ni kichik maktab yoshidagi bolalar yaqqol obrazlarga suyanib mulohaza yuritadilar va bu ularning yaqqol-obrazli tafakkuri mavhum tafakkurdan ma'lum darajada ustun turishini ko'rsatadi. Biroq bu jarayon qachonki yuqori darajada rivojlangan bo'ladi, qachon ularda bilish jarayonlari yuqori daraja o'sib borsa. Bolalarning bilish jarayonlarini o'stirishda esa pedagogik jarayon oldiga juda katta mas'uliyatli vazifa yuklanadi. Ya'ni bolalar obrazli tafakkurini rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim;

- bolaning mustaqil fikrlashi uchun imkoniyat yaratish;
- mashg'ulotlarda kreativ aura muhitini hosil qilish;
- bolalarning standartlashgan fikrlashiga yo'l qo'ymaslik;
- ko'rgazmalilikdan samarali foydalanish;
- bolalar obrazli tafakurini o'stishda xalq og'zaki ijodiga murojaat qilish, ularga ertaklar aytib berish, topishmoq, tez aytilish kabi manbalarni yodlatish;

- nutq va tafakkur tezligini oshirish uchun turli zamonaviy usullardan foydalanish va boshqalar.

Bolalarga beriladigan va asosan maktabda amalga oshiriladigan ta'lim bolalar tafakkurining o'sishi uchun g'oyat katta ahamiyatga egadir. Ta'lim va maktabda beriladigan bilimlarni o'zlashtirish jarayonida, kuzatuvchanlik, xotira va xayol o'sib borishi bilan maktab yoshidagi bolalar tafakkuriga material bo'ladigan predmetlar doirasi kengaya boradi, bolalarda mantiqiy tafakkur va tanqidiy fikrlash o'sib boradi. Ta'lim jarayonida tafakkur katta o'sish yo'lini – aniq tafakkurdan abstrakt–nazariy tafakkurga o'tish yo'lini o'tadi. Lekin bu davr oralig'ida o'quvchilarda ko'rgazmali-obrazli tafakkurini shakllantirib o'quvchilarni keyingi rivojlanish bosqichlariga tayyorlash ahamiyatli jarayondir.

Ta'lim jarayonida tafakkurning analitik sintetik faoliyati muhim rol o'ynaydi. O'quvchi tahlil qilish jarayonida yaxlit-munosabatni yoki narsani bo'laklarga ajratib, ularning uzviy bog'lanishini aniqlaydi, sintezda esa buning aksini bajaradi, ya'ni bo'laklarning yaxlit buyumga bog'lanishini aniqlaydi.

Bayon etilganlardan boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim jarayonida turli umumlashtirish va mavhumlashtirish usullaridan foydalanishi ma'lum bo'ladi. Ularning mavhumlashtirish va umumlashtirish faoliyatini to'rtinchi sinfgacha asta-sekin murakkablashib miqdori va sifati jihatdan o'zgarib boradi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning tafakkuri mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, hukm va xulosa chiqarish, taqqoslash, tahlil qilishning turli usullarini qo'llashdek o'ziga xos xususiyatlari bilan maktabgacha yoshdagi bolalardan farq qiladi. Bolalar yaqqol obrazlarga suyanib mulohaza yuritish, ya'ni yaqqol-obrazlitafakkur mavhum tafakkurdan ma'lum darajada ustun turadi va ularning tafakkuri yosh xususiyatiga mutlaqo mosligini ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida tafakkur operatsiyalarini, mustaqil fikrlashni o'rgatish kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni kamol toptirishning garovidir.

Har bir o'quvchi o'qish jarayonida va turmush tajribasida xilma-xil masala va vazifalarni hal qilishga majbur bo'ladi. Maktab o'quvchisining o'zi savollarni to'g'ri qo'yishni va vazifalar belgilashni, to'g'ri muhokama yuritishni o'rganadi.

Yosh oshgan sari bu muhokamalar tobora ko'proq, mantiqiy muhokamalar bo'lib qoladi va tafakkur sifatlarining o'sishiga asos bo'ladi. O'qish-o'qitish ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilganida maktab o'quvchilarining tafakkurida muayyanlik va izchillik bo'ladi.

Shuni aytib o'tish kerakki, obrazli tafakkur bolalarda 4 yoshidan shakllana boshlaydi. Katta yoshdagi kishilarda ham ro'zg'orga taaluqli turli buyumlar bilan va xilma-xil mehnat qurollari bilan ish olib borayotganlarida ularning kundalik amaliy faoliyatida ham obrazli tafakkur ishga solinadi. Tafakkur qilinayotgan narsani idrok qilmasdan, balki faqat tasavvur qilgan vaqtimizda obrazli tafakkurimizga suyanamiz.

Kecha bo'lib o'tgan voqealar to'g'risidagi muhokamalar, Marsda hayot bormikan, deb qilayotgan bizning muhokamalrimizni obrazli tafakkur namunalari deb hisoblash mumkin. Dars vaqtida o'qituvchi biror gulning tuzilishini o'quvchilarga tushuntirayotgan bo'lsa-yu, lekin bu gul o'quvchilarga o'z tajribalaridan ma'lum va shu sababli o'quvchilar shu gul ko'rsatilmasa ham, uni tasavvur qilishlari mumkin deb hisoblab, o'z darsini davom ettirayotganida o'qituvchi va o'quvchilardagi tafakkuri yaqqol obrazli tafakkur bo'ladi. Lekin kichik maktab yoshidagi o'quvchilardan farqli o'laroq, katta yoshlilarda abstrakt tafakkur, intuiativ va analitik tafakkur, ijodiytafakkur kabi bir qancha turlar ham shakllangan bo'ladi. Boshlang'ich sinfga endigina qabul qilingan 6-7 yoshli bolalar hali ko'rgazmali-obrazli tafakkur darajasida bo'ladilar. 1-sinfga qabul qilingan o'quvchilarga bejizga dastlab faqat ko'rgazmalar, rasmlar orqali dars tashkil etilmaydi. Boshlang'ich sinf darsliklarining barchasi turli rang-barang su'rat va rasmlarga boy bo'lishi ham ulardagi tafakkur turining obrazli ekanligidandir. Demak o'quvchining tafakkur darajasi hali obrazli tafakkurga asoslangan ekan, buni inobatga olgan holda ta'limni tashkil etishda quyidagilarni o'rganishni pedagogik muammo sifatida qarash mumkin:

✓ Maktab yoshidagi kichik bolalarning tafakkurida obrazli tafakkur ustunlik qiladi, lekin ta'lim jarayonida bunday bolalarning obrazli tafakkuri, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning obrazli tafakkuriga qaraganda, murakkabroq va

mazmunliroq hisoblanadi, ulardagi fikrlash jarayonlarining hammasi takomillasha boradi. O'quvchilarga tobora murakkabroq narsalarni va o'zi idrok qilayotgan narsalarni hamda hodisalarnigina emas, balki, shu bilan birga, tasavvur qilayotgan narsalar va hodisalarni ham bir-biriga taqqoslab, umumlashtirib, yakka xulosalar chiqarishga tayyor emasligi;

✓ Dars jarayonida o'qituvchi ham o'quvchi ham ko'p bora obrazli tafakkurga tayanadi. Shunisi ahamiyatliki o'quvchi o'rganilayotgan obyekt (narsa yoki predmet - u qush, biron hayvon, yoki o'simlik, osmon jismlari ham bo'lishi mumkin)ni avval ko'rgan bo'lishi lozim. Shu sababli o'quv jarayonini tashkil etishda o'quvchilarda obrazli tasavvur paydo bo'lishi uchun ko'rgazmali vositalarning yetarli emasligi yoki yetarli darajada foydalanilmayotganligi;

✓ Boshlang'ich maktabning o'zidayoq bolalar birinchi sinfdan boshlab ko'p miqdorda xilma-xil tushunchalarni grammatikaga, arifmetikaga, tabiiyotga doir va ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni o'zlashtirib oladilar. Har qanday tushunchani ham o'zlashtirish vaqtida ular ko'p bora o'zlarining obrazli tafakkuriga suyanadilar. O'quvchilarda obrazli tafakkurni shakllantirish yuzasidan integrasiyalashgan darslardan foydalanmasligi;

✓ Mazkur muammo yuzasidan maxsus sirtqi shaklida ta'lim olayotgan, ayni patyda boshlang'ich sinflarda o'qituvchilik faoliyatini amalga oshirgan talabalar bilan suxbat va so'rovnomalar o'tkazilganda, ularning amaliy dars ishlanmalari tahlil qilib o'rganilganda faqat darslikdagi matn ustida va o'quvchilarda nutq ko'nikmalarini shakllantirish bilangina cheklanib qolinganligini kuzatdik. O'quvchilarning tasavvurini, xoyolot dunosini boyitish, ijodkorlik, yaratuvchilik qobilyatini shakllantrishga doir o'qituvchilarning pedagogik bilimga ega emasligi;

✓ Boshlang'ich sinf darsliklarini o'rganib tahlil qilar ekanmiz ularda o'quvchialrni kreativ va mustaqil fikrlashga yo'naltirish uchun berilgan materiallarning imkoniyatlaridan foydalanish malakasining mavjud emasligi;

✓ O'quvchilar ongida mustahkam o'rnashgan tushunchalar asosida abstrakt tafakkur o'sadi. Obrazli tafakkurdan sekin-asta mantiqiy tafakkurga, abstrakt tafakkurning shakllanishiga zamin yaratishga etibor qaratilamsligi;

✓ O‘quvchining obrazli tafakkurini tarkib toptiradigan usul va metodlarini tanlash, uni yanada shakllantirish va rivojlantirish, o‘quvchilarni analitik-sintetik faoliyatdan mantiqiy fikralshga o‘tishi bilan birga xotira va tasavvurga tayanib fikr yurita olish qobiliyatini shakllantirish, bunda yangi zamonaviy usullar – kreativ metodlardan foydalanmaganligi;

✓ Tafakkur jarayonlari, uni shakllantirish bosqichlarini keng ko‘lamda o‘rganish, o‘qituvchilarning psixologik va psixodiagnostik bilimlarini oshirish kerakligi;

✓ Xalq og‘zaki ijodi asosida obrazli tafakkurni shakllantirish borasida yangicha yondoshuvni qaror toptirish bo‘yicha yetarlicha ish olib borilmaganligi;

Har bir o‘quvchi o‘qish jarayonida va turmush tajribasida xilma-xil masala va vazifalarni hal qilishga majbur bo‘ladi. Maktab o‘quvchisining o‘zi savollarni to‘g‘ri qo‘yishni va vazifalar belgilashni, to‘g‘ri muhokama yuritishni o‘rganadi. Yosh oshgan sari bu muhokamalar tobora ko‘proq, mantiqiy muhokamalar bo‘lib qoladi. O‘qish-o‘qitish ishlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganida ya‘ni obrazli tafakkur to‘g‘ri shakllantirib borilganida undan unumli foydalanib o‘quvchilarning individual xususiyatlarini o‘rganib, ularning qobiliyatlarini aniqlashga erishish mumkin.

Bolalarni o‘qitish davrida ularda nazariy tafakkur bilan birgalikda amaliy tafakkur hamrivojlantiriladi. Bunga avvalo, shu yo‘l bilan erishiladiki, maktabda ko‘pgina fanlarni o‘qitish o‘quvchilarning olgan bilimlarini amaliyotda tatbiq qilishlari bilan bog‘lab olib boriladi.

Bugungi kunda maktablardagi barcha ta'lim-tarbiya ishlari o‘quvchilarning faol, ongli ishtirokida olib boriladi. Bu esaboshlang‘ich sinf o‘quvchilarida keng mazmunli, mustaqil va mantiqiy jihatdan to‘g‘ri tafakkurning o‘sishiga ko‘p darajada yordam beradi.

1.2. Tafakkur jarayonlari va uni shakllanish bosqichlari

Tadqiqot ishimizning mavzusi tafakkur turlari bilan bog‘liq ekan, avvalambor, tafakkur o‘zi nima, uning lug‘aviy ma‘nosi, falsafiy va psixologik ta‘riflariga to‘xtalib o‘tamiz.

“Tafakkur” (arabcha-“o‘ylash”, “fikir yuritish”) – obyektiv borliqning tasavvur tushuncha va muhokamadagi faol inkosi jarayoni, insonning fikrlash qobiliyati, fikrlash tushuniladi. [21;13]

Tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli bo‘lib, obyektiv borliqning ongda aks etish jarayonidir. Tafakkur atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to‘la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Tafakkur inson miyasining alohida funksiyasi. Uning nerv fzilogik asosi birinchi va ikkinchi signal sistemalarining o‘zaro munosabatidan iborat. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g‘oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi[22;299].

Umumiy psixologiya darsliklarida tafakkurga berilgan ta‘riflar turlicha bo‘lib, ikkita yoki uchta muhim xususiyati ta‘kidlab o‘tiladi, xolos. Jumladan, P.I.Ivanovning [14;186] darsligida “Tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq(to‘g‘ri), to‘liq, chuqur va umumlashtirib aks ettirishiga (bilishga), insonning tag‘in ham oqliona amaliy faoliyat bilan shug‘ullanishiga imkon beradi”, deb ta‘riflaydi. Ushbu ta‘rifda tafakkurning to‘la, aniq va umumlashtirilgan holda aks ettirishi ta‘kidlab o‘tiladi, xolos, lekin uning xarakterli xususiyatlari bevosita so‘z bilan ifodalanishi muallifning diqqat markazidan chetda qilgan.

M.B.Gamezo [15;20] “Tafakkur voqelikning umumlashgan holda va so‘z hamda o‘tmish tajriba vositalarida aks ettirilishi” ekanligini bayon qiladi. U tafakkurning umulashgan, so‘z vositasida va vositali atrof-muhit hodisalarini aks ettira olishini ta‘kidlaydi. Bizningcha, tafakkurga berilgan ushbu ta‘rif uning

predmetini to‘la ochib berishga qurbi yetmaydi, shuning uchun boashqa manbalarga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi.

A.V.Petrovskiy [14;187] tahriri ostidagi darslikda tafakkurga ushbu shaklda ta’rif o‘z ifodasini topgan: “Tafkkur – ijtimoiy-sababiy, nutq bilan chambarchas bog‘liq muhim bir yangilik qidirish va ochishdan iborat psixik jarayondir, boshqacha qilib aytganda, tafakkur voqelikni analiz va sintez qilishda uni bevosita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir ”. ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, tafakkur yuqorida keltirib o‘tilgan ta’riflardan bir muncha kengroq xususiyatlarini ochib berish uchun xizmat qiladi.

Binobarin, tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikning eng aniq (to‘g‘ri), to‘liq, chuqur va umumiyashtirib aks ettirishiga (bilishga), insonning yanada oqilona amaliy faoliyat bilan shug‘ullanishiga imkon beradi.

Insonda tafakkur bo‘lganligi va tafakkur bilan chambarchas nutq bo‘lganligi tufayli u hayvonlardan farq qiladi, shu sababli u ongli mavjudotdir. Inson o‘z atrofidagi olamda bo‘lgan buyumlar va hodisalarni ongli ravishda idrok qiladi. Ongli ravishda eslab qoladi hamda esga tushiradi va ongli ravishda harakat qiladi. Tafakkur atrofdagi olamni bilish qurolidir va inson amaliy faoliyatini vujudga kelishi uchun shartdir. Biron narsa to‘g‘risida tafakkur qilish jarayonida fikr paydo bo‘ladi, bu fikrlar insonning ongida hukm va tushunchalar shaklini oladi. Tafakkurning bilish faoliyatidagi roli avvalo bizning idroklarimiz va fikrlarimizning voqelikka qanchalik muvofiq bo‘lishini, to‘lar haqiqat yoki xato, chinmi yoki yolg‘on ekanligini belgilashda o‘z ifodasini topadi. Bunday tafakkur qilish eng oddiy amaliy voqelikda namoyon bo‘ladi. Voqelikning sezgilardagi va idrokdagi in’ikosning o‘zi chinakam bilim bo‘ladi. Masalan: biz quyoshning har kuni sharqdan chiqib, g‘arbga botayotganini hammamiz ko‘ramiz (idroq qilamiz). Biz yerni qimirlamay turganini, asrlar davomida qilgan fikriy faoliyati natijasidagina uzoq davom qilgan kuzatishlar o‘tkazish va matematika yo‘li bilan tadqiqotlar qilish natijasidagina haqiqatda quyosh yer atrofida aylanmasdan, balki yer o‘z o‘qi atrofi va quyosh atrofida aylanayotganligini aniqladik. Demak,

quyoshning harakati to'g'risidagi bizning bevosita idrokimiz voqelikka to'g'ri kelmas ekan. Voqelikni to'g'ri aks etishi tafakkur bilan aniqlanadi. Yuqoriroq bosqichlarda bunday fikrlash tafakkur jarayonlarida hosil bo'lgan hukmlar va tushunchalarning chinligini yoki chin emasligini aniqlashda ifodalanadi. Tafakkurdeb – voqelikdagi narsa va hodisalarni ular o'rtasidagi bog'lanishlarni fikran, umumlashtirib, vositali yo'l bilan aks ettirishga aytiladi. Voqelik tafakkurda, idrok va tasavvurgina nisbatan chuqurroq va to'laroq aks etadi. Biz sezgi, idrok vositasi bilan bilib olishimiz mumkin bo'lmagan narsa yoki hodisalarni, narsa yoki hodisalarning xususiyatlarini, ularning bog'lanish va munosabatlarini tafakkur vositasi bilan bilib olamiz. Masalan: bizga ma'lumki, agar yorug'lik nuri shisha prizma orqali o'tkazilsa bu nur spektorni yetti rangiga ajralib ketadi. Bu ranglarni biz idrok qilamiz (ko'zimiz bilan ko'ramiz). Lekin fizikadan bizga shu narsa aniqki, bu nurlardan bo'lak yana boshqa nurlar ham bor. Bu nurlar infraqizil, ultrabinafsha nurlar deb ataladi. Bu nurlarni biz ko'rmaymiz. Bunday nurlarni borligi tafakkur yordami bilan kashf qilingan. Biz tasavvur qilishimiz mumkin bo'lgan ko'pgina hodisalar bor. Biz bu hodisalar to'g'risida faqat fikr yurita olamiz. Tafakkur voqelikni umumlashtirib aks ettirishdir. Biz ayrim narsalarni va hodisalarni, masalan, alohida stolni yoki stulni idrok qilamiz, tasavvur qilamiz, ammo umuman stol va stul to'g'risida fikrlashimiz mumkin. Umumlashtirish natijasida bir hukmning o'zida ayni vaqtda yakka bir narsa to'g'risidagina fikr qilib qolmasdan, balki shu narsa bilan birga narsalarning butun bir turkumi to'g'risida ham fikr qilish mumkin. Masalan, "O'zbekistonning hamma fuqarolari qonun oldida tengdirlar". Bu hukmda ayrim bir kishi to'g'risida hukm qilmasdan, balki O'zbekistonning hamma fuqarolari to'g'risida fikr yuritimiz. Narsa yoki hodisalar to'g'risidagi eng muhim bog'lanishlar va munosabatlar tafakkur yordami bilan ochiladi. Siz qalamni barmoqlaringiz bilan 20 sm balandda ushlab turibsiz. Barmoqlaringizni ochib yuborsangiz qalam stol ustiga tushadi, uning taqillagani eshitaladi. Biz bu hodisalarni birin-ketin idrok qilamiz va ularni xuddi shu tartibda tasavvur qilishimiz mumkin. Lekin biz bunda hodisalarni ma'lum vaqt ichida birin - ketin sodir bo'lishini idrok qilamiz, holos. Ammo ayni

vaqtda tafakkur yordami bilan bu hodisalarning bir - biriga qonuniy bog‘lanishdagi chuqurroq sabablar va bundan kelib chiqadigan natijalar ochiladi.

Biz hodisalarning birin - ketin o‘tayotganligini qayd qilib qolavermaymiz, balki birinchi hodisa bo‘lgani uchun ikkinchi hodisa ro‘y berdi, undan keyingina hodisalarning har qaysisi (masalan, tovush) oldindan hodisa ro‘y berganligi uchun (qalam stolga urilgani uchun) sodir bo‘ladi, deb aniq qilib aytamiz va oldingi hodisaning ro‘y berganligi keyingi hodisaning muqarrar keltirib chiqarganligini anglaymiz. Bu hodisalar ularning ma‘lum bir vaqt ichida birin - ketin sodir bo‘lganligini idrok qilganimizdan tashqari ular o‘rtasida sabab - natija tariqasida bog‘lanishi, ya‘ni qonuniy bog‘lanish bor, deb aniq qilib aytamiz. Biz shu sabab - natija tariqasidagi bog‘lanishning o‘zini bevosita idrok qila olmaymiz. Uni sezgi organlarimiz vositasi bilan his qilolmaymiz, (ko‘rmaymiz, ushlab ko‘rmaymiz, eshita olmaymiz) balki shu bog‘lanish borligini idrokimizga asoslanib turib fikr qilish yo‘li bilan topamiz. So‘ngra ayrim hodisalardagi sabab-natija bog‘lanishlari ochilganligiga asoslanib, umumiyashtirish yo‘li bilan voqelikning umumiy qonuniyatlarini topib olamiz. Masalan, bir holda suvning yaxlab qolganligi haroratning pasayganligi (0 dan pastda tushib ketganligi) sabab bo‘lgani aniqlangan bo‘lsa va bu hodisa boshqa bir qancha hollarni ham aniqlagan bo‘lsa, yana shu hollarni umumiyashtirish natijasida “harorat 0 dan past bo‘lgani suv hamisha muzlaydi”, degan hukmda ifodalangan qonun topilgan. Hodisalar o‘rtasidagi mavjud sabab - natija bog‘lanishlarini belgilaganimiz uchun biz hozirgi paytda bizning oldimizda ro‘y bermagan hodisalarning yuz berishini oldindan aytib berishimiz mumkin. Masalan: termometrda haroratning 0 dan past tushganligini ko‘rishimiz bilan endi suv muzlaydi, deb oldindan ayta olamiz.

Oldindan bilish muayyan maqsadni qo‘yishga va ana shu maqsadga muvofiq harakat qilishga imkon beradi. Odamlarning hozirgi amaliyoti bizning xilma - xil mehnatimiz natijasini oldindan bilish tufayli mumkin bo‘lmoqda. Mehnat faoliyati ayni vaqtda fikrlash faoliyati hamdir. Tafakkur yo‘li bilan aniqlangan abstrakt - nazariy qoidalar inson amaliyotida sinovdan o‘tkaziladi, (tasdiqlanadi yoki rad qilinadi), voqelikni xuddi shu yo‘l bilan eng to‘g‘ri va aniq bilib olinadi. Tafakkur

ongning voqelikni eng aniq, chuqur, to'liq, umumiyashtirib va bevosita aks ettirishga (bilishga) qaratilgan faoliyatdir, asosan narsalarni bevosita sezishimiz va idrok qilishimiz mumkin bo'lmagan bog'lanishlar va munosabatlarning aks etishidir. Fikrlar, hukmlar va tushunchalar dastlab idrok va tasavvur asosida vujudga keladi. Bu fikrlar xotirada mustahkamlanadi va so'ngra tafakkurning yuksakroq va murakkabroq jarayonlari uchun material (asos) bo'lib qoladi. Har bir kishi tevarak - atrofdagi olamni bevosita bilish bilan mashg'ul bo'lganida fikr yuritmay, balki shu bilan birga u harakat qilayotganida ham boshqa kishilar nutq orqali aloqa qilayotganida, o'z fikrini boshqa kishilarga bildirayotganida hamda boshqa kishilardan tayyor fikr va bilimlarni olayotganida ham fikr qiladi. Odamning tafakkuri til bilan bevosita bog'langandir. Fikr va muhokamalar, bilish va tajriba til yordami bilan shakllanadi. Insoniyat jamiyatida odamlar bir - birlari bilan til vositasi orqali fikr almashadilar.

Tafakkur jarayonlari tafakkur faoliyati muayyan maqsadga qaratilgan alohida ong jarayoni tariqasida sodir bo'ladi. Bosh miyaning biror uchastkasidagi faoliyat emas, balki butun bosh miya po'stining faoliyati mana shu jarayonning nerv - fiziologik asosidir.

Tafakkur jarayoni insonning bilishga bo'lgan ehtiyojlari, tevarak-atrofdagi olam va turmush to'g'risidagi o'z bilimlarini kengaytirishga va chuqurlashtirishga intilish sababli vujudga keladi. Fikr qiluvchi kishining tafakkur obyektini anglashi (bilish) tafakkur jarayonining karakterli xususiyatidir. Odam o'zi idrok qilayotgan, tasavvur qilayotgan narsalar to'g'risida fikr qiladi. Shuning uchun tushunchalar, narsalarning butun bir sinfi (turkumi) to'g'risida fikr qiladi. Odam o'z tafakkuri to'g'risida va boshqa psixik jarayonlar to'g'risida, shuningdek o'ziga xilma xil obyektiv xususiyatlari to'g'risida fikr qiladi, ya'ni bo'lar tafakkur obyektini bo'ladi. Bir narsaga tayanmagan quruqdan - quruq tafakkur bo'lishi mumkin emas. Taqqoslash, tahlil va sintez, abstraktsiya va umumlashtirish, tasniflash va tizimga solish aqliy operatsiyalarning asosiy turlaridir. Bizda yangi hukmlar ana shu operatsiyalar jarayonida hosil bo'ladi, real olamdagi narsalar va hodisalar to'g'risidagi tushunchalar vujudga keladi.

Taqqoslash. Taqqoslash shunday bir aqliy operatsiyadirki, bu operatsiya ayrim narsalar o'rtasidagi o'xshashlikni yoki tafovutni, tenglikni yoki tengsizlikni, bir xil yoki qarama - qarshilik borligini aniqlashda ifodalanadi. Narsalarning o'xshashligi yoki tafovuti dastlab bevosita sezgilarda va idroklarda aks etadi. Taqqoslash fikr qilish jarayoni idrok qilinayotgan narsalarning o'xshashligi yoki tafovutni aniqlash lozim bo'lganda, yoxud sezgilarda va idrokda bevosita aks etmagan o'xshashlik va tafovutni topish lozim bo'lgan hollarda voqe bo'ladi. Amaliy taqqoslash bir narsani ikkinchi bir narsaga solishtirib ko'rilayotganda, masalan: bir qalamni ikkinchi bir qalamga, o'lchov chizig'ini taxtaga va shu kabilarga solishtirib ko'rilayotganda sodir bo'ladi. Taqqoslash tasavvur qilinayotgan yoki o'ylanilgan narsalarni bir -biriga fikran solishtirib ko'rish yo'li bilan amalga oshiriladi. Psixologiyani o'rganayotgan vaqtimizda biz hamisha ayrim psixik hodisalarni bir - biri bilan taqqoslaymiz va ulardagi o'xshashlikni, tafovutni topamiz. Ayrim kishilarni bir -biriga taqqoslab, ularning qobiliyatida, karakterida, qarashlarida tafovut yoki o'xshashlik topamiz.

Sintez va tahlil. Analiz (tahlil) narsa - buyumlarni, hodisalarni, jarayonni tarkibiy belgilari, elementlariga, qismlariga bo'lish demakdir. Tahlil jarayonida butunning uning qismlariga, uning elementlariga bo'lgan munosabati aniqlanadi. Tahlil obyektlari amalda ajratib bo'lmaydigan elementlarga yoki belgilarga bo'lishda ifodalanishi mumkin. Bu fikriy tahlil, ya'ni fikrda qilinadigan tahlildir. Psixologiyani o'rganayotganimizda har bir psixik hodisani bir-biri bilan taqqoslabgina qolmasdan, balki shu bilan birga tahlil ham qilamiz. O'qish mashg'uloti vaqtida tafakkurning tahlil qilish faoliyati katta o'rin tutadi. Chunonchi, savod o'rgatish, nutqni tahlil qilishdan: gapni so'zlarga, so'zlarni bo'g'inlarga, bo'g'inlarni tovushlarga ajratishdan boshlanadi. Matematik masalani echish tahlil qilishdan, dastlab bir qancha ma'lum sonlarni, so'ngra esa noma'lum sonlarni topishdan boshlanadi.

Sintez tahlilning aksi yoki teskarisi bo'lgan tafakkur jarayonidir. Bu jarayon obyektning ayrim elementlarini, qismlarini, belgilarini bir butun qilib qo'shishdan iboratdir. Sintez jarayonida murakkab bir butun narsa yoki hodisa tarkibiga kirgan


elementlar yoki qismlar tariqasida olingan buyum va hodisalarning shu murakkab bir butun narsa yoki hodisaga bo'lgan munosabati aniqlanadi. Sintez elementlarning, narsa va hodisalarning qismlarini bir butun qilib qo'yishdan iboratdir, tahlil amaliy bo'lgani singari sintez ham amaliy bo'lishi mumkin. Tahlil singari sintez ham o'qish jarayonida katta o'rin tutadi. Masalan: o'qishga o'rgatish vaqtida tovushlar va harflardan bo'g'inlar, bo'g'inlardan so'zlar, so'zlardan gaplar tuziladi. Mana shuning o'zi sintezdir.

Abstraktsiyalash, umumlashtirish va konkretlashtirish. Abstraktsiya shunday bir fikrlash jarayonidirki, bunday tafakkurda aks etilayotgan bir yoki bir necha obyektlarning biror belgisi (xususiyati, harakati, holati, munosabati) shu obyekt yoki obyektidan fikran ajratib olinadi. Bu jarayonda obyektidan ajratilgan bir belgining o'zi tafakkurning mustaqil obyekti bo'lib qoladi. Abstraktsiya, odatda tahlil jarayonida yoki tahlil natijasida sodir bo'ladi. Masalan: sinfdagi doskani qoraligi to'g'risidagi, so'ngra umuman qoralik to'g'risida fikr qilish mumkin. Biz odamlar, samolyotlar, suv, ot va hokazolarni ko'z oldimizdagi harakatini ko'zatib turib, ularning bitta umumiy belgisini, harakatini fikran ajratib olishimiz va umuman harakat to'g'risida fikr qilishimiz mumkin. Chunonchi abstraktsiyalash yo'li bilan bizda uzunlik, kenglik, miqdor, tenglik, son, qiymat va boshqa shu kabilar to'g'risida abstrakt tushuncha hosil bo'ladi. Umumlashtirish tafakkurda aks etgan bir turkum narsalarning o'xshash muhim belgilarining shu narsalar to'g'risidagi bitta tushuncha qilib fikrda birlashtirish demakdir. Masalan: olmalar, noklarda, o'riklarda, apel'sinlarda va boshqa shu kabilarda bo'lgan o'xshash belgilar bitta tushunchada birlashadi. Biz buni meva degan so'z bilan ifodalaymiz. Daraxtlar, o'tlar, gullar va boshqa shu kabilar o'simlik degan tushunchada umumlashtiriladi.

Konkretlashtirish birinchidan, umumiy abstrakt belgining yakka obyektga tadbiq etish mansub qilinadi, ifodalanadi. Masalan: biz "oq" deganimizda ko'z oldimizga qor, qog'oz, paxta va shu kabilar kelishi mumkin. Ikkinchidan, konkretlashtirish umumiy va yakka belgilari kamroq bo'lgan umumiylikni ochishda ifodalanadi. Masalan, biz olma, olxo'ri, o'zumni mevalar qatoriga, stol,

stul, divan va shu kabilarni mebel qatoriga qo‘shamiz. Umumiy fikrlarni bayon qilish va izohlash chog‘ida biz, odatda keltiriladigan misollarning hammasi konkretlashtirishning o‘zidir.

Tafakkur shakllari. Tushuncha voqelikda narsa va hodisalarning umumiy, muhim farq qiluvchi maxsus belgilarini aks ettiradi, Masalan: “odam”, “kuy”, “ruchka”. Hukm voqelikdagi narsa va hodisalar o‘rtasida mavjud bog‘lanishlarni, shu narsa va hodisalarga bir xususiyatni xos yoki xos emasligi ko‘rsatadi. Hukmlar obyektiv voqelikni aks ettirishga qarab chin yoki xato bo‘ladi. “Hozir tashqarida yomg‘ir yog‘yapti” (xato). Hukmlar umumiy juz‘iy va yakka hukmlar bo‘ladi. Umumiy hukmlarda mazkur guruhdagi mazkur sinfdagi hukmlar, hamma narsalar to‘g‘risida tasdiqlanadi yoki inkor qilinadi. Juz‘iy hukmlarda xususiyatlar ayrim qismlarga taalluqli bo‘ladi. Yakka hukmlarda tasdiqlash yoki inkor qilish faqat bitta narsaga tegishli bo‘ladi.



Xulosa chiqarish bitta yoki bir necha hukmlardan yangi hukm hosil qilishdir
3 xil xulosa chiqarish mavjud:

1. Induktiv xulosa chiqarish (yakka xulosa)
2. Deduktiv xulosa chiqarish (umumiy xulosa)
3. Analogik xulosa chiqarish (taxminiy xulosa)

*Tafakkur turlari.*Psixologiyada tafakkur turlarining quyidagi sodda va bir muncha shartli tasnifi tarqalgandir:

Ko'rgazmali - harakatli tafakkur - tarixiy taraqqiyot davomida odamlar o'z oldilarida turgan maqsadlarni dastlab amaliy faoliyat nuqtai nazardan echganlar, keyinchalik undan nazariy faoliyat ajralib chiqqan. Amaliy va nazariy faoliyat chambarchas bog'langandir. Sof nazariy faoliyat birlamchi emas, balki amaliy faoliyatning o'zi birlamchidir. Yana faoliyatning taraqqiyoti davomida unga nisbatan mustaqil nazariy fikr yuritish faoliyati ajralib chiqqan. Faqat butun insoniyatning tarixiy taraqqiyoti emas, balki shu bilan birga har bir bolaning psixik taraqqiyoti jarayonini ham dastavval sof nazariy faoliyat emas, balki amaliy faoliyatdir. Go'yo bu amaliy faoliyat ichida avval bola tafakkuri rivojlanadi. Bog'chadagi yosh (3 yoshgacha) asosan ko'rgazmali - harakat tafakkuri bo'ladi. Bola bilayotgan obrazli tafakkurni o'z qo'llari bilan amaliy ravishda va guyo tabiiy ravishda ajratadi. Masalan, o'yinchoqlarni buzib ko'rish va boshqalar.

Ko'rgazmali - obrazli tafakkur.Inson tomonidan bevosita idrok qilinayotgan predmetlar emas, balki faqat tasavvur qilinayotgan narsa hodisalar haqida fikrlashdan iborat tafakkur turi ko'rgazmali obrazli tafakkur deb ataladi.Ko'rgazmali-obrazli tafakkur sodda shaklda ko'pincha bog'cha yoshida bolalarda, ya'ni 4 - 7 yoshgacha bo'lgan bolalarda paydo bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarda tafakkurning amaliy harakatlar bilan aloqasi avvalgidek to'g'ri va bevosita bo'lmaydi. Bola bo'layotgan obrazli tafakkurni aniq idrok qilishi va tasavvur qilishi shartdir. Bog'cha yoshidagi bolalar faqat ko'rgazmali obrazlar bilan fikr yuritadilar va uncha tushunchaga ega bo'lmaydilar. Bog'cha yoshidagi bolalarda ilmiy tushunchalarning yo'qligi shveysariyalik psixolog J.Piajening [14;190] quyidagi tajribasida juda yaqqol namoyon bo'ladi: 7 yoshga yaqin bolalarga xamirdan qilingan mutlaqo bir xil hajmi jihatdan teng 2 ta soqqa ko'rsatiladi. Bolalar uni teng deb hisoblaydi. Bolalarning ko'z oldida bitta soqqa ezib non shakliga keltiriladi. Endi bolalar non shaklidagi soqqada xamir ko'p deb hisoblaydilar. Bolalarning ko'rgazmali - obrazli tafakkurlari hali ularning idroklariga bevosita to'la bo'ysunadigan bo'ladi. Ularning ko'rgazmali - obrazli

shaklida oʻtadigan tafakkurlari bolalarni soqqaga qaraganda non shaklidagi hamir koʻproq, degan xulosaga olib keladi. Shuning uchun ular narsa va hodisalarning, jism va predmetlarning koʻzga yaqqol tashlanib turuvchi alomatiga, xususiyatiga, tashqi belgisiga eʼtibor qiladilar. Lekin ularni ichki bogʻlanishlarini, oʻzaro munosabatini bildirib keladigan muhim, asosiy sifatlarga ahamiyat bermaydilar. Obyektalrni fazoda joylashgan oʻrni, tashqi nomuhim belgisi ularning koʻrgazmali-obrazli tafakkurini vujudga keltiradi. Masalan, ularning nazarida odamlar boʻyining baland va pastligi ularning yoshini (ulugʻligini) belgilaydilar.

Mavxum tafakkur (abstrakt). Bolalarning amaliy va koʻrgazmali hissiy tajribalari asosida ularning maktab yoshidagi davrlarda avval sodda shakldagi mavxum tafakkur, yaʼni mavxum tushunchalarga asoslangan tafakkur rivojlanadi. Maktab oʻquvchilarining matematika, fizika, tarix va boshqa fan asoslarini oʻzlashtirish davomida tushunchalarni egallashlari ularning aqliy taraqqiyotlari uchun katta ahamiyatga egadir. eng mavhum tafakkurlarning ham hissiy bilish chegarasidan ancha chiqib ketishga qaramay, hech qachon sezgi, idrok va tasavvurlardan toʻla - toʻkis ajralib ketmaydi. Oʻquvchilarda tushunchalarning taraqqiy etishi jarayonida koʻrgazmalilik ikki tomonlama rol oʻynaydi. Bir tomondan, koʻrgazmalilik, tushunchalarning taraqqiy etishi ni engillashtiradi. Ikkinchi tomondan, har qanday koʻrgazmalilik sharoitida maktab oʻquvchilarida mavxum tafakkurning tarkib topishiga qulay sharoit yarata bermaydi. Juda koʻp koʻrgazmalilik oʻquvchilar diqqatini chalgʻitib yuboradi.

Tafakkurdagi individual farqlar yoki sifatlar - Ayrim kishilarning tafakkuri oʻzining mazmundorligi, chuqurligi va kengligi jihatdan, mustaqilligi, samaraliligi va tezligi jihatdan turli davrlarda turlicha namoyon boʻladi. Bular tafakkurning sifatini tashkil qiluvchi belgilardir. Tafakkurning mazmundorligi avvalo u yoki bu narsalar, hodisalar toʻgʻrisidagi voqelikning u yoki bu, muhokamalar va tushunchalarda odamlarning ongida qanchalik oʻrin olganligidan kelib chiqadi. Fikrning chuqurligi uning mazmundorligini taʼminlaydi. Tafakkurning mazmundorligi va chuqurligi uning kengligi bilan chambarchas bogʻlangan.

Voqelikning eng ko‘p sohalarini o‘z ichiga olgan, hozirgi vaqtni, uzoq o‘tmishni va uzoq kelajakni o‘z ichiga olgan tafakkurni biz keng tafakkur deymiz.

TAFAKKUR TURLARI			
Formulasiga ko‘ra	Topshiriq harakatiga ko‘ra	Fikr yoyiqligiga ko‘ra	Fikrning originallik darajasiga ko‘ra
Ko‘rgazmali- harakatli, <u>ko‘rgazmali- obrazli</u>	Amaliy, nazariy ixtiyoriy ixtiyorsiz	Konkret abstrakt realistik	Reproduktiv produktiv ijodiy vizual fazoviy

Odam o‘z oldiga yangi vazifalarni qo‘yishda o‘zi tashabbus ko‘rsatib, shu vazifalarni boshqa odamlarning yordamisiz, o‘zining alohida yo‘llari bilan hal qilaversa, bu odamlarning tafakkuri mustaqil tafakkur bo‘ladi. Tafakkurning tanqidiyligi o‘zgalarning yoki o‘zlarining fikrlarini haqiqatga mos bo‘lishi - bo‘lmasligi jihatini tekshira bilishda va shu fikrlarga baho bera olishda ifodalanadi. Tafakkurning tezligi qo‘yilgan savollarga juda tezlik bilan javob topa olishida namoyon bo‘ladi. Fikrning tezligi maktab o‘quvchilari uchun muhim ahamiyatga ega. Masalan: ayrim yaxshi o‘quvchilarni doskaga chiqarib, ulardan yangi masalani echish talab qilinganda hayajonlanib, butun sinf oldida o‘zlarini yo‘qotib qo‘yadilar. Bu salbiy emotsiyalar go‘yo ularning tafakkurini tormozlab qo‘yadi.

Fikr juda sekin va tez - tez muvaffaqiyatsiz ishlay boshlaydi. Maktab o'quvchilarning tafakkuri hali juda katta va yetarli foydalanilmayotgan zaxira hamda imkoniyatlarga egadir. Psixologiya va pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri ana shu imkoniyatlarni to'la ochish va ular asosida ta'limni yanada samarali, hamda ijodiy hal qilishdan iboratdir.

1.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida obrazli tafakkur shakllanganligining mavjud holati

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining obrazli tafakkurini shakllantirish bo'yicha tadqiqot o'tkazishdan oldin shuni takidlab o'tish joizki, yuqorida takidlaganimizdek biz tajribaga olgan har bir boshlang'ich sinf o'quvchisida obrazli tafakkur tabiiy ravishda 4-5 yoshdan shakllana boshlagan. Bizning vazifamiz bu jarayon har bir o'quvchida individual shaklda qanday kechayotganini, qaysi darajada ekanligini aniqlab, o'quvchilar obrazli tafakkurining mavjud holatini uning qay darajada ekanligini aniqlashdan iboratdir.

Obrazli tafakkur ham, ko'rgazmali-harakatli tafakkur ham o'ziga xos bir qancha xususiyatlarga ega. Ushbu xususiyatlar har xil topshiriqlar yechimini izlash bosqichlarida namoyon bo'ladi. Mana shu bog'lanishlar va munosabatlar tufayli bolalardagi obrazli tafakkurni diagnostikalash uchun biz quyidagi metodlardan foydalanamiz.

1. "Raven matritsasi"-tanlov va asoslash.
2. "Yashiringan tasvirlar" metodikasi
3. "Musavvirning xatosi"metodi.

Tadqiqotning o'tkazilishi. Tajriba-sinov tadqiqotimizni Qarshi shahridagi 19-umumiy o'rta ta'lim maktabining ikkita 3-sinf: 3-A (o'quvchi soni 30 nafar) hamda 3-V (o'quvchi soni 31 nafar) sinflarida o'tkazdik. Ulardan nazorat sinfi 3-V, tajriba sinfi etib 3-A sinf tanlandi. Dastlabki holat, ya'ni, o'quvchilar

tafakkurining o'ziga xosligini aniqlash uchun 2018 yil mart oyining boshida o'quvchilardan quyidagi psixodagnostik testlar olindi.

1. "Raven matritsasi"-[20; 138]. Ushbu metodika kichik maktab yoshidagi bolalarning ko'rgazmali-obrazli tafakkurini o'rganishga mo'ljallangan bo'lib, uning asosiy vazifalari mashhur Raven testidan olingan. U 10 ta asta-sekin murakkablashib boruvchi Raven matritsalaridan iborat. O'quvchilarga asta-sekin murakkablashib boruvchi 10 qismdan iborat vazifa beriladi. Masalan: Matritsada bo'laklarning joylashishidagi qonuniyatni topish va 1-2-illovalarda berilgan 8 ta rasm ichidan shu matritsaga mos keluvchi qismlarni topish kerak. (Matritsaning shu qismi ichida har xil rasmlari bor bayroqchalar sifatida berilgan).

Katta matritsa tuzilishini o'rganib, bayroqchalar ichidan o'quvchilar katta matritsaga joylashishi uchun mantiqan mos keluvchi qismni aniqlashi kerak. O'quvchilarning 10 ta topshiriqni bajarishi uchun 10 daqiqa vaqt beriladi. Vaqt tugagach, tadqiqotchi tajribani to'xtatadi va to'g'ri aniqlangan matritsalar soni hamda vazifani bajarishda to'plangan umumiy ball hisoblanadi, har bir to'g'ri bajarilgan matritsa uchun:

10 ball - juda yuqori

2-3 ball - quyi.

8-9 ball - yuqori

0-1 ball - juda past.

4-7 ball - o'rtacha

2. "Yashiringan tasvirlar" metodikasi

3-metodga ko'ra o'quvchilarga quyidagi rasmlar ketma-ketlikda ko'rsatiladi.

Ularning tagida quyidagi variantlar ham beriladi. O'quvchilar o'z javob variantlarini qog'ozda belgilab beradilar. Masalan: 1-rasmga a) ayiq kabi.

1-Rasmda bug‘u bilan birga yana nima tasvirlangan?

- a) **Ayiq**
- b) **Mushuk**
- c) **Pingvin**





Javob: c) Pingvin


2-Rasmda fildan boshqa yana nima tasvirlangan?

a) Kapalak

b) oqqush

c) quyon





Javob: B) Oqqush


3-Rasmda kiyik bilan birga yana anday hayvon tasvirlangan?

d) burgut

e) tyulen

f) quyon






3-metod: Musavvirning xatosi

Ushbu metodda o'quvchilar quyidagi rasmlardagi mantiqiy xatoliklarni topishlari va nima uchunligini izohlashlari kerak bo'ladi.



1-rasm



2-rasm

1. “Raven matritsasi”-tanlov va asoslash.
2. “Yashiringan tasvirlar” metodikasi
3. “Musavvirning xatosi”metodi.

Tadqiqot natijalari 3-jadvalda nazorat guruhi va 4- jadvalda tajriba guruhlari ko‘rsarkichlari aks ettirilgan.

Nazorat sinfi


1-jadval

№	O'quvchilarning ismi va familiyasi	"Raven matritsasi"		"Yashiringan tasvirlar" metodikasi		"Musavvirning xatosi"metodi		Umumiy foiz
		tanlov	asoslash	tanlov	asoslash	tanlov	asoslash	
1	Adhamjonov Saidali	45%	30%	65%	25%	45%	25%	39%
2	Aliyeva Sitora	50%	25%	45%	25%	60%	45%	42%
3	Aminov Firdavsbek	65%	25%	60%	45%	30%	25%	42%
4	Bakiyeva Luiza	50%	25%	30%	25%	50%	25%	34%
5	Baratov Akbarjon	50%	25%	50%	25%	40%	0%	32%
6	Berdiyeva Dinora	55%	25%	40%	0%	50%	25%	33%
7	Bo'ronova Go'zal	35%	0%	50%	25%	45%	20%	29%
8	Boyquvvatova Gulasal	65%	25%	45%	20%	50%	25%	38%
9	Egamberdiyev Sanjar	45%	25%	50%	25%	50%	25%	37%
10	Fayziyev Fattoxbek	60%	45%	50%	25%	35%	20%	39%
11	Hasanova Elmira	30%	25%	35%	20%	55%	25%	32%
12	Ikromov Akobir	50%	25%	55%	25%	35%	0%	32%
13	Inomjonov Asilbek	40%	0%	35%	0%	55%	25%	26%
14	Jumayeva Hafiza	50%	25%	65%	25%	35%	0%	33%
15	Kamolova Bibisora	45%	20%	45%	25%	65%	25%	38%
16	Karimova Kibriyo	50%	25%	60%	45%	45%	25%	42%
17	Mamadaliyeva Sevara	50%	25%	30%	25%	60%	45%	39%
18	Mirzayev Bekzod	35%	20%	50%	25%	30%	25%	31%
19	Mo'minova Shirina	30%	0%	40%	0%	50%	25%	24%
20	Muxiddinova Malika	50%	25%	50%	25%	40%	0%	32%
21	Nematova Munisa	30%	25%	45%	20%	50%	25%	33%
22	Omonullayev Elbek	25%	25%	50%	25%	45%	20%	32%
23	Quvvatova Xursanoy	45%	25%	50%	25%	50%	25%	37%
24	Rahmonova Durdona	30%	0%	35%	20%	55%	25%	28%
25	Rasulov Otabek	40%	0%	30%	0%	35%	0%	18%
26	Samandarov Amir	45%	25%	55%	25%	65%	25%	40%
27	Suvanov Abror	60%	25%	35%	0%	45%	25%	32%
28	To'likov Mehroj	30%	45%	65%	25%	60%	45%	45%
29	Xaitova Muslima	50%	25%	45%	25%	30%	25%	33%
30	Xushmurodova Mamura	40%	15%	60%	45%	50%	25%	39%
31	Yo'loshova Muslimaxon	50%	25%	30%	25%	40%	0%	28%
O'rtacha ko'rsatkich		45%	23%	48%	23%	47%	22%	34%

Tajriba sinfi2-jadval

№	O'quvchilarning ismi va familiyasi	"Raven matritsasi"		"Yashiringan tasvirlar" metodikasi		"Musavvirning xatosi" metodi		Umumiy foiz
		tanlov	asoslash	tanlov	asoslash	tanlov	asoslash	
1	Alimardonova Soliha	30%	25%	35%	20%	55%	25%	37%
2	Arziqulov Bekzod	50%	25%	55%	25%	35%	0%	39%
3	Asadova Mohina	40%	0%	35%	0%	55%	25%	32%
4	Bekmirzayev Abdulaziz	50%	25%	65%	25%	35%	0%	32%
5	Cho'liyev Abbas	45%	20%	45%	25%	65%	25%	26%
6	Do'stmurodov Abdulla	50%	25%	60%	45%	45%	25%	33%
7	Erkayeva Marjona	30%	25%	35%	20%	55%	25%	38%
8	Esanov Omonullo	50%	25%	55%	25%	35%	0%	42%
9	Fozilov Erkin	40%	0%	35%	0%	55%	25%	32%
10	Hoshimov O'tkir	50%	25%	65%	25%	35%	0%	32%
11	Ibragimov Shohruh	45%	20%	45%	25%	65%	25%	26%
12	Jahongirova Farangiz	50%	25%	60%	45%	45%	25%	33%
13	Jamilova Lolaxon	50%	25%	30%	25%	60%	45%	38%
14	Kamtarova Joziba	30%	25%	35%	20%	55%	25%	42%
15	Lutfullayev Ibodulla	50%	25%	55%	25%	35%	0%	39%
16	Mirzayeva Nigina	40%	0%	35%	0%	55%	25%	32%
17	Murodova Samiya	50%	25%	65%	25%	35%	0%	32%
18	Nomozova Zilola	45%	20%	45%	25%	65%	25%	26%
19	Ochilov Kamronbek	50%	25%	60%	45%	45%	25%	33%
20	Oybekova Samira	50%	25%	30%	25%	60%	45%	38%
21	Qahramonov Inrohim	35%	20%	50%	25%	30%	25%	42%
22	Qanoatova Komila	30%	0%	40%	0%	50%	25%	39%
23	Shuhratova Shohsanam	50%	25%	50%	25%	40%	0%	31%
24	Siddiqov Fozilbek	30%	25%	45%	20%	50%	25%	24%
25	Suyarov Tohirbek	25%	25%	50%	25%	45%	20%	32%
26	To'ychiyeva Hulkar	40%	0%	35%	0%	55%	25%	33%
27	To'ychiyeva Malohat	50%	25%	65%	25%	35%	0%	32%
28	Tog'ayeva Mamura	45%	20%	45%	25%	65%	25%	26%
29	Tursunova Aziza	50%	25%	60%	45%	45%	25%	33%
30	Xonkeldiyeva Charos	50%	25%	30%	25%	60%	45%	38%
O'rtacha ko'rsatkich		44%	21%	48%	22%	48%	19%	34%

Shundayqilib savollarga javobning maksimal usuli 100% gaminimum – 0% gavaboshqako'rsatkichlar parametrlarni aniqlash uchun foizlarda ifodalandi. Tadqiqot natijasini yanada aniqroq ko'rish uchun diagrammalarda tasvirlaymiz.



Yuqorida qayd etilgan topshiriqlarni bajarishda o'quvchilar turli darajadagi qiyinchiliklarga duch kelganliklarini qayd etish lozim. Tajriba natijalaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining juda ko'pchiligida obrazli tafakkur ko'rsatkichi past darjada ekanligi, bunga sabab o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, mustaqil ishlashiga kam e'tibor berilishi, ularning mustaqil izlanishlari ijodiy fikrlashlari uchun berilgan topshiriqlar o'quvchining o'zi tomonidan bajarilishi nazorat qilinmaganligi deyish mumkin.

I Bob yuzasidan xulosalar

1. Muammoga doir ilmiy-nazariy, psixologik va pedagogik adabiyotlar tahlili va mavjud holatni o'rganish natijasi shundan dalolat beradiki, bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarida obrazli tafakkurni shakllantirish muammosi dolzarb pedagogik masaladir.

2. Tafakkur jarayonlari, uni shakllanish bosqichlarini o'rganish orqali tafakkur operatsiyalari, xususiyatlari, turlarini psixologik jihatdan tatbiq qilib, uning pedagogik xususiyatlarini o'rganish va tatbiq qilish, o'quvchilarda ko'rgazmali-obrazli tafakkurni shakllantirishning xususiyatlari va ahamiyati o'rganildi.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida obrazli tafakkurni shakllanganligining mavjud holati yuzasidan olib borgan tadqiqotlar natijasi o'laroq shunday xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining obrazli tafakkurini yuqori darajada deb bo'lmaydi. Chunki o'quvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlashi, qobilyatini nomoyon qilishda bir qancha muammolar aniqlandi.

Bular:

- o'qituvchilarning bolalarning ijodiy ishlanmalari va shaxsiy fikrlari bilan qiziqmaganligi, ularni qo'llab-quvvatlamaganligi;
- o'quvchilarning o'qituvchi tomonidan bir xil qolipga solib qo'yilganligi;
- mustaqil ishlash uchun berilgan topshiriqlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashlari uchun xizmat qilmaganligi;
- kreativ fikrlash va ijodiy yondashuvni oshiruvchi metodlarning qo'llanilmaganligi, umuman olganda o'quvchilarda bu sifatlarni shakllantirishning ahamiyati haqida o'qituvchining yetarli bilimga ega emasligini kuzatildi.

II BOB.BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARI OBRAZLI TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIK ASOSLARI

2.1. Xalq og'zaki ijodi - o'quvchilar obrazli tafakkurni shakllantirish manbai sifatida

Har bir jamiyatda yashagan xalq ruhi, do'stlik, birodarlik, mardlik, vatan va xalqqa sodiqlik g'oyalari, ota-onalarning o'zaro ahiligi, ular bilan farzandning o'zaro mehr-muhabbati, qadr-qimmatini, insoniy eng yaxshi fazilatlarini u ijod etgan maqol, topishmoq, ertak, latifa, lapar, askiya, dostonlarda tarannum etilgan. Bu yodgorliklar o'z muxtasarligi, qiziqarliligi, rovonligi, ohangdorligi, pandnomaligi (didaktikligi) g'oyaviyligi bilan, g'oyatda muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Buyuk ajdodlarimiz, pedagog-olimlarimiz o'z asarlarida xalq badiiy ijodi namunalariga tayanib ish ko'rganlar. Donishmand xalq olg'a surgan tarbiyaning xalqchilligi va tabiatga uyg'unligiga doir g'oyalarni ijodiy rivojlantirganlar. Xalq tafakkuri rivoji ucha gilamlar va otlar, oynai jahonlar yaratishni orzu qilishda ifodalangan bo'lsa, hozirgi zamonda ular haqiqatga aylandi. Shu jarayonda xalqning tarbiya haqidagi tushunchalari ham o'sib bordi.

Xalq og'zaki ijodi manbalari va ulardagi pedagogik fikrlar xilma-xilligi, rang-barangligi ham kishi diqqatini o'ziga tortadi. Avvalo, xalq pedagogik madaniyatining tarkibiy qismi sifatida xalq og'zaki ijodimanbalaridagi shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, turli tarbiyaviy g'oyalar o'quvchilarning axloqiy sifatlarini shakllantirishga xizmat qilsa, undagi obrazlilik, sifatlash, mubolag'a, majoz, yorqinlik, ta'sirchanlik o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi, ijodkorlik, va tafakkur turlarini shakllantirishda muhim manba hisoblanadi.

O'quvchilarning ko'rgazmali-obrazli tafakkurini shakllantirish borasida ish olib borar ekanmiz bu borada dostonlar, ertak, afsona, rivoyat, hikoyalarning ahamiyatli ekanligini ta'kidlash joiz. O'quvchilar dostonni faqatgina tinglamaydilar, undagi voqealar syujeti, turli qahramonlar obrazi ularning

tasavvurida gavdalanadi, harakatlanadi, soʻzlashadi. Bola ham oʻzini oʻsha voqealar va qahramonlar ichidadek tasavvur qiladi, buni oʻyin faoliyatida eshitgan ertak qahramonlarning nomini aytib, goh undagi salbiy qahramonlar bilan jang qilib oʻtirgan holatidan sezish mumkin.

Doston – xalq ogʻzaki ijodining eng yirik janri boʻlib, u qahramonlik, ishqiy-sarguzasht, fantastik mazmunga ega boʻlgan voqealarni bayon qiluvchi asar. Qahramonlarning sarguzashtlari, oʻzaro munosabatlari va kechinmalarini keng koʻlamda tasvirlovchi yirik hajmli liro-epik asar doston deyiladi. Doston davr, tuzumdagi xalq ruhiyatini, xususiyatlarini aks ettiradi. Zamonlar oʻtishi bilan ular yangi-yangi mavzular va gʻoyaviy mazmun bilan boyib boradi. Dostonlar xalq tomonidan yaratilgach, ijodkor xalq ular orqali oʻz maqsadlari, orzu-istaklari, his-tuygʻularini ifodalaydi. Odatda, dostonlarning birinchi ijodkori unutilib, ular nasldan naslga, avloddan avlodga oʻtishi natijasida xalq mulkiga aylanadi.

Dostonlar mavzu jihatidan rang-barang, mazmunan xilma-xil boʻlganligi bois ularning quyidagi turlari mavjud: qahramonlik dostonlari, romantik – ishqiy-sarguzasht dostonlar, tarixiy dostonlar.

Dostonlardagi asosiy qahramonlar qiyofasida insonparvarlik, vatanparvarlik, mardlik, jasurlik, doʻstlik, vafodorlik, sadoqat kabi olijanob fazilatlar umumlashtiriladi. Xalq ogʻzaki ijodidagi “Alpomish” qahramonlik dostoni boʻlsa, “Goʻroʻgʻli”, “Ravshan”, “Rustamxon”, “Oshiq Gʻarib va Shohsanam” kabilar ishqiy-sarguzasht dostonlaridir. “Rustamxon”da oʻz davrining ijtimoiy-siyosiy munosabatlari, ishq-muhabbat sarguzashtlari, turli fantastik uydirmalar, ertaklarga xos voqealarning yuksak badiiyati bilan yoʻgʻrilgan tasvirlar kishini hayajonga soladi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari darslik materiallari orqali “Alpomish” va “Rustamxon” dostonlaridagi mardlik va vatanparvarlik xislatlari ulugʻlangan qahramonlik sahnalaridan parchalar bilan tanishtiriladi.

Dostonlarni bilan oʻquvchilarni tanishtirish oʻqish darslarida shuningdek sinfdan tashqari oʻqish orqali amalga oshirilishi mumkin. 3-sinf oʻqish kitobida (2010-yilgi nashr) “Rustamxon” dostonidan parcha berilgan boʻlib bu doston

botir Rustamxon uch boshli ajdarxoni qirq bo‘lakka bo‘lib halok etgani va qizni qutqargani hikoya qilinadi.



Shunda Rustam otiga qamchi urib, qirning ustiga chiqadi. Qarasa, ajdaho ko‘zi olovday yonib, har tarafga o‘t sochib, tog‘ning tagidan Charxinko‘lga suv ichgani tushib kelayotgan ekan.

Haybat bilan kelayotir ajdaho,
Yaqinladi Rustambekday zo‘ravon.
Ajdahoni qaysar Rustam o‘ldirdi,
Qirq bir g‘o‘la qilib kesib tashladi.
Bir g‘o‘ladan oldi uzun bir tasma,
«Ajdaho belgisi» dedi, jo‘nadi.



1. Dostonni rollarga bo‘lib o‘qing. Rustamning mardligi ifodalangan o‘rinlarni matndan aniqlang.
2. Rustamxon sizga yoqdimi? Nima uchun?
3. Matnda keltirilgan mardlik haqidagi maqolni o‘qing.



Doston mazmunini to‘liq so‘zlashga tayyorlanib keling.



Hozirda amal qilinayotgan 3-sinf o‘qish kitobida [24;156] faqatgina “Alpomishning bolaligi” matni asosida ushbu dostonan parcha berilgan.

Matnning quyidagi qismlarida mubolag‘a ishlatilgan bo‘lib, o‘quvchilarning tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi.

Hakimbekning bobosidan qolgan o‘n to‘rt yarim botmonlik parli yoyi bor edi. Uni hech kim joyidan qo‘zg‘ata olmas edi. Bir kuni Hakimbek ana shu yoyni qo‘liga ushlab, ko‘tarib tortadi, so‘ng qo‘yib yuboradi. Yoyning o‘qi yashindek bo‘lib ketadi. O‘q Asqar tog‘ining katta cho‘qqisini yulib o‘tadi. Shundan so‘ng



Parchada Alpomishning o‘n to‘rt botmonlik yoyning ko‘tarishi, u otgan kamon o‘qi tog‘ cho‘qqisini yulib o‘tganligi kabi o‘rinlardagi kuchaytirish orqali o‘quvchilar tasavvurida kuchli pahlavon va mergan Alpomishning obrazi gavdalanadi.


Dostonlar bilan bir qatorda ertaklar ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida obrazli tafakkurni shakllantirishning muhim manbai bo‘lib, ayniqsa jonivorlar qatnashgan va sehrlil ertaklar ularning tasavvur dunyosini boyitishga xizmat qiladi. Ertak – qadimgi turkcha “Etuk” (M. Qoshg‘ariy)suzidan olingan bulib, biror voqeani og‘zaki so‘zlash ma‘nosini anglatadi. Ertak – Surxon, Qashqa, Farg‘ona vohasi, Samarqandda “matal”, Xorazmda “varsaqi”, Toshkent atrofida “cho‘pchak” deb ataladi.

Ertaklarda mo‘jiza yoki sarguzasht ma‘lum voqea-hodisalarni hayot bilan bog‘lab, haqiqat, ozodlik, to‘g‘rilik, odamiylik, olijanoblik g‘oyalarini targ‘ib etadi. Shuning uchun ular bolani o‘ziga ko‘proq jalb etadi. Ertaklar ham didaktik, ham tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Jumladan: “Chol bilan kampir”,

“Bulbuligo‘yo”, “Ur to‘qmoq”, “Uch og‘a-ini botirlar”, “Bo‘ri bilan qo‘zichoq”, “Baxtli kal” singari ertaklar shular jumlasidandir. Ertaklarning hayvonlar, qushlar haqidagi turlari, mitti polvonlar (“No‘xatvoy”, “Quloqvoy”, “Xandalak polvon”, “Yapaloqpolvon” ...) haqidagi turlari, bir yoki ikki epizodli satirik ifoda vositasida salbiy tarbiyaviy sifatlarni tanqid, mashara qiluvchi etnopedagogika turidir. o‘zbeklarda latif qaytarish, so‘zga chechanlik musobaqasi shaklida o‘tkaziladi. mavjud.

Quyidagi keltirilgan rasmlarda ertak kitoblar va ulardagi sehrli qahramonlarning obrazlari gavdalangan.





Bu ertaklarda sehirlı jonivorlar, sehirlı predmetlar va ga'royib xislatga ega bo'lgan odamlar, ularning ko'z ko'rib quloq eshitmagan g'aroyib sarguzashtlari hikoya qilinadiki mohirona o'ylab topilgan bu voqelardan beihtiyor lol qolish mumkin. Bu xalqning naqadar ijodkorligi, boy tasavvuri, yaratuvchanligidandir. Shuni ishonch bilan ta'kidlash lozimki bularning barchasi obrazli tafakkurning oily mahsulidir.

Xalq pedagogikasida bolalarning tafakkuri, mushohada qobiliyatini o'stirishda topishmoqlardan unumli foydalanilgan. Topishmoqlar vositasida bolalarga ibtidoiy hisob (qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish amallari) o'rgatilgan. Bular jumlasiga: "Pak-pakana bo'yi bor, yetti qavat to'ni bor" (piyoz), "Aylanaverib-aylanaverib semirdi xonim" (urchuq), "Otarda yuz qo'y va echki bor. Ularning nechta oyog'i va qulog'i bor?" (100 ta qo'y va echkida 400 oyoq, 200 quloq bor) va boshqalarni kiritish mumkin.

Topishmoq – deb, bir-biriga o'xshash ikki predmetdan jumboq yasalib, ikkinchisiga xos o'xshash belgilar asosida uni topishga mo'ljallangan she'riy yoki nasriy topshiriqqa aytiladi. Topishmoqlarda ham ta'lim-tarbiyaviy fikrlar olg'a suriladi, ular vositasida insonning tafakkuri, fikrlash doirasi, topqirligi, nutqi, hozirjavoblik sifatlari o'stirilgan. o'tmishda aholi qishning uzun tunlarida to'planishib, maqol, matal, topishmoq, doston, ertaklar aytib vaqtni ko'ngilli o'tkazganlar. Bunday anjumanlarda bolalar ham qatnashgan. Masalan: "Bir parcha

patir, olamga tatir” topishmog‘ida eng to‘yimli ozuqa – patir “Oy” ga o‘xshatilgan. Oy shaklining patir shakliga o‘xshatilishi orqali bir obraz boshqasiga qiyoslanmoqda..

Bolalarda obrazli tafakkurni rivojlantirishda topishmoqlarning ahamiyati kattadir. Chunki aytilgan jumboqdagi sifatlash va o‘xshatishlar orqali u tafakkurida juda ko‘p obrazlarni gavdalantiradi, topishmoqdagi sifatlarni bilan taqqoslaydi, agar unda ushbu obraz haqida tasavvur bo‘lsa javobni topa oladi, bo‘lmasa topolmaydi.

O‘quvchilarning obrazli tafakkurini shakllantirishda topishmoqlardan foydalanishning quyidagi usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

“Topishmoq top!”metodi. Bu metodda o‘quvchilar kelishgan holda bitta mavzu tanlaydilar (masalan, sinf xonasida mavjud bo‘lgan predmetlar yoki hammalariga ma’lum bo‘lgan hodisalar yuzasidan) shu mavzu yuzasidan navbatma-navbat topishmoq tuzadilar. Masalan,

- 1- topishmoq. Men bir narsa ko‘ryapman, shakli to‘rtburchak, o‘zi yashil, biz unga yozamiz, chizamiz, bosh harfi “d” oxiri “a”! javobi: “Doska”.
- 2- topishmoq. Men bir narsa ko‘ryapman,shakli yumaloq, nur sochadi, shiftga osilgan, bosh harfi “ch” oxiri “q”! javobi: “Chiroq”. Kabi yoki turli qiziqarli topishmoqlar aytish va topish.

Masalan,

Uzun tumshuq siyohli,

Qo‘sh kaltakdek oyoqli,

Egnida oq xalati,

Tugmasi yo‘q, g‘alati (laylak)



Nozikkina jondir u,

Dema, o‘ch ginasi bor,

Yonida emas uning,

Nomida ninasi bor. (Ninachi)

Hozirgi kunda bolalar uchun mo‘ljallangan turli multimediyali ko‘rgazmalar asosida ham bolalar bilan topishmoqlar ustida ishlash mumkin.

Topishmoqlar



Kichkina dekcha —
Ichi to'la mixcha.



Yomg'irdan so'ng chiqadi,
Cho'tir qalpoq kiyadi.
Quyoshni yoqtirmaydi,
Shamolni chaqirmaydi.

Yer tagida oltin qoziq —
U hammaga bo'lar oziq.



Ajib ishlar bo'ladi,
Uxlaganlar ko'radi.



Pishsa bemaza,
Pishmasa maza.



Chopsa, chopilmas,
Bo'lsa, bo'linmas.
Kessa, kesilmas,
Ko'msa, ko'milmas.

Dum-dumaloq bo'yi bor,
Palovda obro'yi bor.



Har kun yerga tushadi
Ikkita sara parda.
Ikki rangda ikkovi —
Oq parda, qora parda.



Bir onadan yuz bola,
Yuzovi ham bo'z bola.

Tushganda qora parda,
Oq parda bekinadi.
Oqi tushsa agarda,
Qorasi chekinadi.



To'ni silliq, tuki yo'q,
Ichi qizil, ko'ki yo'q.



Bor shunday ulkan chiroq,
Uzoq-uzoqda biroq.
Kechalarni yoritar,
Nuri jahonga yetar.



• «Chiq-chiq» der, yo'q to'xtovi,
Vaqtning aniq o'lchovi.



Simdan quvvat olmaydi,
Yurmasdan turolmaydi.
U nima top, Gulchiroy?
— Topdim, bu to'lin ...

O'zi bitta,
Qo'li ikkita,
Tishi yuzta.



• Rangi har xil,
Nomi bir xil.

Rebusni yechsangiz, oymoma haqi-
dagi topishmoqni bilib olasiz:

Yungi igna,
Burni tugma.
Ko'zi munchoq,
Bag'ri yumshoq.



p +



,



o



+ ga

t +



.

“Maqol” atamasi arabcha “kavlun” – gapirmoq, aytmoq soʻzlaridan olingan boʻlib, ommaning muayyan voqea-hodisalar, voqelik haqidagi loʻnda xulosalarini ifodalaydi. Ularda fikr aniq, muayyan mantiqiy izchillikda, baʻzan toʻgʻri, baʻzan koʻchma maʼnoda ifodalanadi[12;43].

Maqolda ifodalangan pedagogik gʻoyalar alohida shaxsgagina emas, balki keng xalq ommasiga qaratilgan boʻladi. Unda hayotiy tajribada sinalgan pedagogik fikrlar bayon qilinadi. U oʻz shakliga koʻra ixcham, mukammal, lekin ommabop boʻladi. Shuningdek, maqollar xalq pedagogik tafakkuri yoʻnalishlarini, uning pedagogik madaniyatini, maʼnaviy-ahloqiy eʼtiqodini, turmush va mehnat mezonlarini, sevgi va nafratini, orzu va intilishini ifodalaydi. Shuning uchun ham L.N.Tolstoy: “Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalq siymosini koʻraman”[12; 45] degan edi. Xalq maqollari mehnat jarayonida yaratilganligi tufayli unda mehnat mavzusi yetakchilik qiladi.

Maqollardagi koʻchma maʼno, kishilarning harakati turli hayvon va predmetlar obrazlariga koʻchishidan foydalanib bolalar tafakkurini boyitish mumkin.

Masalan: Baliq suv bilan tirik,

Odam el bilan.

Bu maqoldan bolalar shunday xulosa chiqarishlari mumkin: baliq suvsiz yashay olmaydi, demak odam eli, xalqisiz yolgʻiz oʻzi yashay olmas ekan.

Kiyingi maqolni qaraylik: Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar,

Yomon gap bilan pichoq qinidan chiqar.

Demak yaxshi gap bilan yomon boʻlsa ham ilonni inidan chiqarish, yomon niyatli kishini toʻgʻri yoʻlga solish mumkin. Yomon gap bilan tinch qinda turgan pichoqni chiqarish, janjal, nifoq keltirish mumkin ekan degan xulosa chiqarish mumkin.

Quyidagi boshqotirma ham maqollar bilan ishlashning bir usulidir. Unga koʻra katakchalarga tushirib qoldirilgan kerakli harflarni qoʻyib chiqib maqolni topish lozim.

Boshqotirma

Mevalar rasmidan foydalanib boshqotirmani yechsangiz, bosh harflardan maqolning davomini o'qiysiz.


1 Aql yoshda emas — ...

Rebusni yechsangiz, kitob haqidagi hikmatli gap kelib chiqadi:



O'quvchiga maktabni topib borishida yordam bering.

O'quvchiga yordam berib, qaysi hikmatli gapni o'rganib oldingiz?

6 + n y m s,
 ✖ ✖ + da ✖ ✖



m n
 ✖ ✖ + ✖ + da.

Odobli bola — ...

Bundan tashqari “Maqolni davom ettir!” ta’limiy o‘yini ham obrazli tafakkur shakllanaishiga yordam beradigan usul hisoblanadi.

Maqolni davom ettiring:

Bulbul chamanni sevar,	Aqlsizga – kaltak
Aqlliga-hurmat,	Yomon do‘sting kuydirar
Suv keldi,	Odam vatanni
Ona – daraxt,	Oz so‘zlasa ham soz so‘zlar

Yaxshi do‘sting kuldirar,	Nur keldi
Ko‘p bilgan oz so‘zlar,	Bola – meva

Maktab ta'limida o‘quvchilar o‘zbek xalq og‘zaki ijodi haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lishlari kerak. Bunga tabiiyki maktabda barcha fanlarni o‘rganishda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish orqali erishiladi. Fanlarni o‘qitishda ularning mazmuni xususiyati vazifasi hisobga olgan holda ahloq, nafosat, baynamillik, insonparvarlik, vatanparvarlikka doir inson va o‘simlik va hayvonot olami haqidagi an'analardan foydalaniladi. Maktabda o‘qitiladigan ayrim fanlar mazmunida xalq an'analari urf odatlari mavjud. Masalan ona tili va adabiyot fanlarin o‘qtishda o‘rganilayotgan mavzu xususiyatlariga qarab, xalq og‘zaki ijodidan ertak dostonlarda yozuvchilarning asarlarida aks ettirilgan xalq urf odatlari an'analari ustida so‘z boradi. Ularda tasvirlangan lavhalar mazmuni so‘zlatiladi. O‘quvchilar o‘zlari bilgan, eshitgan urf odatlarni aytib beradilar.

1-sinfdan tortib 4-sinfgacha “O‘qish kitobi” darsliklarida xalq og‘zaki ijodi alohida bo‘lim sifatida ko‘rsatilgan va ularni o‘rganish uchun muayyan bir soatlar belgilangan.

Xususan, 1-sinf “O‘qish kitobi”[8; 58-70] darsligining “Xalq o‘giti – baxt kaliti” bo‘limini o‘rganish uchun o‘quv dasturida 9 soat ajratilgan.

“Xalq o‘giti – baxt kaliti” bo‘limiga bolalar qalbiga ona allasi bilan kirib kelgan og‘zaki ijod namunalari kiritilgan bo‘lib, ezgulik, to‘g‘ri so‘zlik, sofdillik, nafosat, do‘stlik, o‘rtoqlik, ahillik haqida tasavvur hosil qiladi.

O‘quvchilarning sinfda va mustaqil o‘qishlari lozim bo‘lgan asarlar:

1. “Sher va sichqon” ertagi.
2. “Maymun va duradgor” ertagi.
3. Maqollar
4. Topishmoqlar
5. “Rostgo‘y bola” ertagi.
6. ”Laylak keldi - yoz bo‘ldi” qo‘shigi.

7. Latifalar.

2-sinf “O‘qish kitobi”[9;101]-darsligidagi “Ertaklar – yaxshilikka yetaklar” bo‘limini o‘rganish uchun 13 soat ajratilgan.

Bu bo‘lim orqali o‘quvchilar ertaklar olamiga sayohat qilishadi. Nima yaxshiyu, nima yomonligini ertaklardagi voqea-hodisalar orqali uqib oladilar. Ertak qahramonlarining holatini so‘zlab berish, voqealarni rasmda ifodalashga alohida e’tibor qaratiladi.

O‘quvchilarning sinfda va mustaqil o‘qishlari lozim bo‘lgan ertaklari:

1. Tansihatlik tuman boylik (ertak) 2.Kenja o‘g‘il (ertak). 3. Eng yaxshi sovg‘a 4.Tulki va xo‘roz (eron xalq ertagi). 5.Aqilli bola (o‘zbek xalq ertagi). 6.Somon cho‘p va loviya (Aka uka Grimmlar).7.Qarg‘a bilan tulki(I.Krilov), 8.Hakka bilan tulki (o‘zbek xalq ertagi), 9. Mushuk bilan sichqon (Habib Po‘lat).

3-sinf “O‘qish kitobi” [24;156].darsligidagi “Xalq og‘zaki ijodi” bo‘limini o‘rganish uchun17soat ajratilgan. Bu bo‘limda xalq og‘zaki ijodiga oid qo‘shiq, ertak, masal, maqol, latifa, topishmoqlar kiritilgan. Ular orqali o‘quvchilarga xalqning orzu – umidlari, do‘stlik, ahillik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, fazilatlari ulug‘lanishi, salbiy xislatlarning qoralanishi uqtiriladi. O‘quvchilar qo‘shiqlardan “Alla” bilan tanishadilar. “Halollik”, “Botir mergan va chaqimchi”,“Donishmand yigit” kabi o‘zbek xalq ertaklarini o‘qiydilar. Maqollar,latifalar, topishmoqlar,tez aytishlarni ham o‘qiydilar. Bo‘limdan “Rustamxon” va “Alpomish” dostonlaridan parcha ham o‘rin olgan.

4-sinf “O‘qish kitobi” [19; 51-85]darsligidagi “Xalq og‘zaki ijodi” bo‘limini o‘rganish uchun esa 28 soat ajratilgan. Bunda o‘quvchilar xalqimizning ming yillar mobaynida yaratgan sehrli-fantastik ertaklari, xalq dardi, istak-xohishi, orzu-umidlari ifodalangan qo‘shiqlar, bolalarning quvnoq o‘yin-qo‘shiqlari, hozirjavoblik, topqirlikni taqozo etadigan topishmoqlar, xalqning hayotiy xulosasi tarzida yuzaga kelgan purhikmat maqollar, sehr-jozibaga yo‘g‘rilgan rivoyatlarni o‘qib-o‘rganadilar. Bo‘limning o‘zi 5 qismdan iborat:

1- qism “Qo‘shiqlar qanotida” deb ataladi. Bunda “Boychechak” ,“Oftob chiqdi olamga” , “Xo‘p hayda” qo‘shiqlari berilgan.

2- qism “Ertaklar mamlakatida” deb nomlanadi. Undan, “Ilm afzal”, “Davlat”, “Ko‘zacha bilan tulki”, “Ochko‘z boy”, “Hiylagarning jazosi”, “Ziyrak bola”, “Hunarsiz kishi o‘limga yaqin”, “Ziyrak uch yigit” ertaklari o‘rin olgan.

3-qism “Adabiy ertaklar bo‘lib, unda Anvar Obidjonning “Bo‘rining tabib bo‘lgani haqida ertak”, A.Abdurazzoqning “Baqa bilan taqa”, Shukur Sa’dullaning “Laqma it” ertaklari mavjud.

4-qism “Topishmoqlar”.

5-qism ”Maqollar” .

Boshlang‘ich sinf “O‘qish kitobi” darsligidagi xalq og‘zaki ijodiga mansub asarlar mundariyasi tahlilidan ham ko‘rinadiki, o‘quvchilar maktabga qadam qo‘ygan davridanoq xalqning o‘lmas merosidan, ma’naviyat sarchashmasidan, ya’ni og‘zaki ijodi namunalaridan bahramand bol‘r ekan. Bu asarlarni o‘rganish jarayonida ularning tarbiyaviy jihatlariga diqqat qilish, ulardan yosh avlodning insoniy fazilatlarini shakllantirishda unumli foydalanish esa har bir o‘qituvchining eng mas’uliyatli vazifasi bo‘lib qolaveradi.

2.2. Kreativ metodlar asosida o‘quvchilar obrazli tafakkurini shakllantirish metodikasi

Bizga ma’lumki talim jarayonida qo‘llaniladigan metodlar bir qancha asosiy guruhlardan iborat bo‘lib ularning har biri o‘z navbatida kichik guruhlar va ularga kiruvchi alohida metodlarga bo‘linadi. O‘quv bilish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish jarayonini o‘zi kuzatish, qabul qilish, anglash, o‘quv axborotlarini esda saqlashni hamda olinadigan bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llay olishni nazarda tutishni hisobga olsak, birinchi guruh metodlariga og‘zaki metodlari (hikoya, ma’ruza, suhbat va boshqalar), ko‘rgazmali metodlar (tasviriy vositalar,

namoyish qilish va boshqalar), amaliy metodlar (mashqlar. laboratoriya tajribalari, mehnat harakatlari va boshqalar) kiradi.

Hozirgi kunda pedagogika sohasida yangi, zamonaviy metodlar, noan'anaviy usullar mavjud bo'lib ularga interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, turli didaktik o'yinlarni misol qilishimiz mumkin.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish, faollikni oshirish, ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni samarali o'zlashtirish, ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar interfaol metodlar sanaladi [23; 108]. Bunday metodlarga "Aqliy hujum" strategiyasi, "Baliq skeleti" grafik organayzeri, "Bahs-munozara" strategiyasi, "BBB" grafik organayzeri, "Blitz-so'rov" metodi va boshqa kabilarni misol qilishimiz mumkin.

Hozirgi vaqtda ko'plab rivojlangan mamlakatlar talim sohasida kreativ metodlar atamasi ham qo'llanilib kelinmoqda. Kreativ metodlar interfaol ta'lim, kreativ ta'lim asosida shakllangan metodlar majmuidir. Kreativ metodlar bu o'quvchining ijodkorlik qobiliyatlarini yuzaga chiqarishda eng katta vositadir.

Kreativlik – (lot. Creatio - yaratmoq) ijodiy, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyat; yangi termin bo'lib, "Asoslangan, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va qobiliyatning takibiy tuzilishi, mustaqil fikrlash sifatini xarakterlaydigan, kishidagi ijodiy qobiliyatlar majmui" [23; 108].

Odatda kreativ metodlarga asoslangan ta'limiy harakatlar quyidagi shakllarda tashkil etiladi: individual; juftlik; guruh; jamoa bilan ishlash.


Kreativ metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida:

- g'oyaviy ijodkorlik, yaratuvchanlik;
- ijodiy fikrlash, dunyoga ijodkorlik nigohi bilan qarash;
- eng original yechimlar va fikrlarni topish;
- mustaqil fikrlash va fikrini dalillay olish qobiliyati;
- guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda ishlash;
- tengdoshlari orasida o'z g'oyalarni erkin bayon qilish, bilimlarini hech qanday ruhiy to'siqlarsiz namoyish etish;

- muammoni hal qilishga ijodiy yondashish;
- guruh yoki jamoadoshlari bilan ruhiy yaqinlikka erishish;
- o'z ichki imkoniyat va qobiliyatlarini to'liq namoyon qila olish;
- fikrlash, fikrlarini umumlashtirish va ular orasidan eng muhimlarini saralash;
- o'z faoliyatini nazorat qilish va mustaqil baholash;
- o'z imkoniyatlari va kuchiga ishonch hosil qilish kabilar shakllanishiga erishish mumkin.

Kreativ metodlar orqali:

- ta'lim oluvchi (boshlang'ich sinf o'quvchilari)da bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni uyg'otiladi;
 - ta'lim jar ayonining har bir ishtirokchisini rag'batlantiriladi;
 - har bir o'quvchining ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatiladi;
 - o'quv materialining samarali o'zlashtirilishi uchun qulay sharoit yaratiladi;
 - o'quvchilarga ko'p tomonlama ta'sir ko'rsatiladi;
 - o'quvchilarda o'rganilayotgan mavzular bo'yicha fikr hamda munosabatni uyg'otadi;
 - o'quvchilarda hayotiy zarur ko'nikma, malakalarni shakllantiradi;
 - o'quvchilarning xulq-atvorini ijobiy tomnonga o'zgartirilishini ta'minlaydi
- Kreativ ta'limning asosiy belgilari quyidagilardan iboratdir:



Kreativ metodlar quyidagicha klassifikatsiya qilinadi:

1. Intuitiv (“Aqliy hujum”, empatiya, kashf etish kabilar)-mantiqiy bo‘lmagan operatsiyalarni bajarish, ichki intuitsiyaga suyanib bajariladigan metodlar sanaladi.

2. Algoritmik buyruqlar va qo‘llanmalar (“Sinektiki” metodi, “Morfologik tahlil” metodi) – mantiqiy tushunchalardan tashkil topgan operatsiyalar.

3. Eviristik–vazifalarni yo‘l-yo‘lakay tekshirib, chiqarilgan xulosalarni o‘rganish va to‘g‘ri xulosalar yig‘ilib, qolganlarini ixchamlashda qo‘llaniladi.

Bugungi kunda jahon ta’lim tizimida kreativ metodlarning quyidagi shakllarda amalga oshirilayotganligi barchaga ma’lum:

1. Kashf etmoq (Придумывания)- bu metod orqali o‘quvchining kashfiyotchilik qobiliyati, fantaziya kuchi oshiriladi. O‘quvchilarga “Agarda men...”, “Agarda...” kabi boshlang‘ich qo‘zg‘atuvchi savol tashlab qo‘yiladi. O‘quvchilar o‘zlarining tasavvurlariga suyanib jarayonni davom ettirishlari lozim bo‘ladi. Masalan, “Agarda men ko‘rinmas odam bo‘lib qolsam...”, “Agarda yer yuzida elektr toki bo‘lmasa...” kabi.

2. Obrazli rasmlar (Образной картины)-bu metodda obyekt hissiy-obrazli tadqiq qilinadi. O‘quvchi tanlangan obyektни tahlil qilish yoki kuzatish natijasida uning o‘z tasavvuridagi matnli yoki grafik ko‘rinishdagi obrazini yaratishi talab qilinadi. Ushbu metoddan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarda obrazli tafakkurni, tahliliy fikrlashni rivojlantirish, ularning tasavvuri, xayoloti va dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatishdir.

3. Giperbolizatsiya (Гиперболизации)-bu metod biron obyektни orttirib, kattalashtirib yoki aksincha kichraytirib, kamaytirib ko‘rsatish orqali nomoyon bo‘ladi. Misol uchun devlar, Gulliver, yoki “Pakana burunboy” ertagi qahramoni kabi obrazlar kattalashtirib, “Jimjiloq”, “Dyumchaxon”, “No‘xatpolvon” kabi obrazlarning kichiklashtirib olinishini misol qilib olish mumkin.

4. Agglyutinatsiya (Агглютинации) – bu metod orqali o‘quvchilar o‘z tasavvurlari orqali turli, haqiqatdan yiroq bo‘lgan predmet yoki obrazlarni

yaratishlari mumkin. Misol uchun kentavr, sfinks, uchar qanotli otlar ham agglyutinatsiya mahsulidir.

5. Aqliy hujum (“Мозговой штурм”)- Metod o‘quvchilarni mavzu xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, o‘z tasawurlari, g‘oyalariidan ijobiy foydalanishga doir ko‘nikma, malakalarni hosil qilishga rag‘batlantiradi. U yordamida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original (o‘ziga xos) yechimlarni topish imkoniyati tug‘iladi. Metod mavzu doirasida ma‘lum qarashlarni aniqlash, ularga muqobil g‘oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi. Uni samarali qo‘llashda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim: O‘quvchilarning o‘zlarini erkin his etishlariga sharoit yaratib berish, g‘oyalariini yozib borish uchun yozuv taxtasi yoki qog‘ozlarni tayyorlab qo‘yish. Muammo (yoki mavzu)ni aniqlash.

- ✓ Mashg‘ulot jarayonida amal qilinadigan shartlarni belgilash
- ✓ Bildirilayotgan g‘oyalarni ularning mualliflari tomonidan asoslanishiga erishish va ularni yozib olish, qog‘ozlar g‘oya (yoki fikr)lar bilan to‘lgan dan so‘ng yozuv taxtasiga osib qo‘yish.
- ✓ Bildirilgan fikr, yangi g‘oyalarning turlicha va ko‘p miqdorda bo‘lishiga e‘tibor qaratish;
- ✓ O‘quvchilarning boshqalar bildirgan fikrlarni yodda saqlashi, ularga tayanib yangi fikrlarni bildirishi va ular asosida muayyan xulosalarg akelishiga erishish (bi ldirilayotgan har qanday g‘oya baholanmaydi);
- ✓ O‘quvchilar tomonidan mustaqil fikr yuritilishi, shaxsiy fikrlarning ilgari surilishi uchun qulay muhit yaratish;
- ✓ Ilgari surilgan g‘oyalarni yanada boyitish asosida o‘quvchilarni quvvatlash;
- ✓ Boshqalar tomonidan bildirilgan fikr (g‘oya)lar ustidan kulish, kinoyali sharhlarning bildirilishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- ✓ Yangi g‘oyalarni bildirish davom etayotgan ekan, muammoning yagona to‘g‘ri yechimini e‘lon qilishga shoshilmaslik;
- ✓ Mashg‘ulotda metodni qo‘llashda quyidagilarga e‘tibor qaratish lozim:

- ✓ O‘quvchilarni muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ular tomonidan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishish;
- ✓ Har bir o‘quvchi tomonidan bildirilayotgan fikrlar rag‘batlantirilib boriladi, bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullari tanlab olinadi; fikrlarning rag‘batlantirilishi navbatdagi yangi fikrlarning tug‘ilishiga olib keladi;
- ✓ Har bir o‘quvchi o‘zining shaxsiy fikrlariga asoslanishi va ularni o‘zgartirishi mumkin;
- ✓ Avval bildirilgan fikrlarni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o‘zgartrish ilmiy asoslangan fikrlarning shakllanishiga zamin hozirlayditug‘ilishiga olib keladi;
- ✓ Mashg‘ulotda o‘quvchilar faoliyatini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildiriladigan fikrlarni baholashga yo‘l qo‘yilmaydi (zero, fikrlar baholanib borilsa, o‘quvchilar diqqatlarini shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadi, oqibatda yangi fikrlar ilgari surilmaydi;
- ✓ Metodni qo‘llashdan ko‘zlangan asosiy maqsad o‘quvchilarni muammo bo‘yicha keng fikr yuritishga undash ekanligini yodda tutib, ularni baholab borishdan voz kechishdir.

6. Turli fan nuqtayi nazaridan o‘rganish (Разнонаучноговидения)-bumetodining mohiyati shundan iboratki, tanlangan ob’ek to‘quvchilar tomonidan dars jarayonida yoki darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlagan holda turli fan nuqtai nazaridan tadqiq qilinadi. Bu evristik metodning maqsadi mavzuni o‘rganish jarayonida uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab yetish, o‘quvchilarda mustaqil izlanish, tanqidiy, tahliliy va mantiqiy fikrlashlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish, muammolarni, vaziyatlarni turli nuqtai nazardan muhokama qilish malakasini shakllantirishdan iborat.

7. “Ramziy ko‘rinish”(Символического видения)- Ushbu metodda obyekt o‘quvchilartomonidan hissiy-ramziy nuqtai nazardan tadqiq qilinadi. Tanlangan obyekt va uning ramzi orasidagi bog‘lanishlar izlanadi, obyektning grafik, belgili, so‘zlar orqali biror ko‘rinishda ramzini yaratish talab etilib, eng asosiysi, bu ramzni talqin etish, asoslab berish hisoblanadi. Metodning maqsadi

o'zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to'plangan ma'lumotlarni umumlashtirish, ularni rasm, chizma ko'rinishida ifodalay olishga o'rgatish, tahliliy va mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirish, yaratuvchanlik, tasavvurnishakllantirishdan iborat.

8. Everistik savollar (Эверистических вопросов.)- Bu metodda tanlangan hodisa yoki obyekt to'g'risida ma'lumot to'plash maqsadida 7 ta tayanch so'roq so'zlari asosida savollar tuzish talab etiladi. *Kim? Nima?Qaerda?Qachon?Qanday?Qay tarzda?Nima uchun?*so'roqlari bilan boshlanuvchi savollar tuzish va ularga javob topish jarayonida yangidan-yangi "Qachon va qay tarzda?" "Kim va qachon?", "Kim va nima uchun?" kabi savollar yuzaga keladi. Bunda eng original, betakror savollar va aniq javoblar yuqori baholanadi. Maqsad – o'rganilayotgan obyektning mazmun-mohiyatiga chuqur kirib borish, o'quvchilarning tahliliy va mantiqiy fikrlash malakasini oshirishdan iborat.

Bundan tashqari Sinektiki (Синектики), Morfologik quti (Морфологического ящика), Inversiya (Инверсии), Tasodifiy birlashma (Случайных ассоциаций), "Refleks" metodi («Метод рефлексии»), Sinonimik ko'rinish (Смыслового видения) kabi metodlar ham mavjud.

2.3. Integrasiyalashgan darslar vositasida obrazli tafakkurni rivojlantirish usullari

Boshlang'ich ta'limni integrasiyalash hozirgi kunda ahamiyatli bo'lib o'quvchilarning turli fan sohalarini taqqoslab, qiyoslab o'rganishlari orqali umumiy xulosalar va tizimlashgan bilimlarni egallash jarayoni samarali bo'lmoqda. Ularning darslarga nisbatan motivatsiyasini kuchaytirib, tasavvurlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Integratsiyon ta'limning bu kabi avfzalliklarini o'rgangan holda o'quvchilarning obrazli tafakkurini shakllantirishda integrasiyalashgan darslardan foydalanish samarali usul deb topdik.

Tadqiqotlarimiz natijasida samarali deb topilgan usullardan, ya'ni, xalq og'zaki ijodi va kreativ metodlardan foydalangan holda integrasiyalashgan darslarni tashkil etishni maqsadga muvofiq deb topdik. Quyida namunaviy integrasiyalashgan darsning ishlanmalari bilan sizni tanishtiramiz.

3-SINFLAR UCHUN O'QISH FANIDAN DARS ISHLANMASI
Mavzu: "Istiqlol kemasi" ("Koinotga sayohat"fantastik ertakning davomi)

Abdusalom Umarov

Darsning maqsadi:

a) Ta'limiy:o'quvchilarda to'g'ri o'qish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, koinot va osmon jismlari to'g'risida ma'lumot berish, ularning tafakkuri va dunyoqarashini boyitish.

b) Tarbiyaviy:o'quvchilarda vatanparvarlik, milliy g'urur va iftixor, do'stlik, kasbga mehr kabi sifatlarni shakllantirish.

c) Rivojlantiruvchi:o'quvchilarning obrazli tafakkurini rivojlantirish, kreativ fikrlashga o'rgatish.

Darsning turi: yangi mavzuni o'zlashtirish, noananaviy.

Darsning metodi: ko'rsatmalilik, interfaol o'yin, ta'limiy o'yin, rolli o'yin metodlari.

Darsning vositalari:ko'rgazma va maketlar, yasama kosmonavtlar shlemi, yasama radio-quloqchinlar, tarqatma materiallari.

Darsning borishi

Tashkiliy qism:

- Salomlashuv;
- O'quvchilarni darsga tayyorlash;


Asosiy qism

O'tilgan mavzunimustahkamlash:

O'qituvchi: O'quvchilarbizo'tgandarsda qanday ertakni o'tgan edik

O‘quvchilar: “Koinotga sayohat” ertagini

O‘qituvchi: barakalla, to‘g‘ri. Ertakni yaxshilab o‘qidingizmi? Xo‘sh ertakdagi to‘rt og‘a-inilar kimlar ekan. Mana bu boshqotirmamizni yechsak ularning ismlarini topamiz.



O‘qituvchi: barakalla, ular birgalikda nima yasashdi va uni qanday nomlashdi?

O‘quvchilar: uchar ot – raketa yasashdi, uni “Istiqlol kemasi” deb nomlashdi.



[24;156].

O‘qituvchi: Juda to‘g‘ri, barakalla. Bolajonlar siz ham koinotga sayohat qilishni istarmidingiz? Ertakdagi qahramon bolalar bilan tanishishnichi? Unda bugun siz bilan “Istiqlol kemasida” koinotga sayohat qilamiz. Voy, bolajonlar qarang “Istiqlol kemasidagi” kosmanavt bolalar Jasur, Javdat. Javlon hamda Jahongirlar bugun darsimizga tashrif buyrishipti. (sinfdagi oldindan tayyorlangan 4

o‘quvchi 2 tasi kosmonavtlar shlemi bilan, qolganlari yasama quloqchinlar bilan kirib kelishadi.)

Kosmanavtlar: Salom qadrlı bolalar, biz bilan kemamizda sayohat qilishni istaysizmi. Kemamiz katta unga barchangiz sig‘asiz. (deb Raketa maketini ko‘rsatadilar)

O‘qituvchi: qani o‘quvchilar koinotga sayohatimizni boshalaymizmi?

O‘quvchilar: haa!

Doskada quyosh va uning atrofıdagi sayyoralarning qirqma rasmlari yopishtirilgan. Kosmonavt bolalardan Jahongir bilan Javlon raketaning orqa tomoniga o‘tib ko‘tarish uchun maxsus dastakdan tutib uni harakatlantiradilar.

Jahongir: — «Istiqlol» kemasi bizga yaqin bo‘lgan yulduzga yaqin masofada turibdi.

Javlon: — Bu Quyosh-ku! Voy-bo‘, kattaligini.

Jahongir: — Ha, bu Quyosh. U o‘rtacha kattalikdagi yulduzlardan hisoblanadi. Quyoshdan chiqayotgan radioaktiv nurlar juda katta oqim bilan atrofga tarqalmoqda.

Javlon: — «Istiqlol»ning himoya qobig‘i bizni radiatsiyadan himoya qilib turadi. Yer atmosferasi esa yerdagılarni bu radiatsiyadan himoya qilib turadi.

[24;156].

O‘qituvchi: O‘quvchilaruchar kemamiz hozir quyoshga juda yaqin turipti. Quyosh juda ulkan va issiq sayyoradir. U yerdan bir necha million marta katta, unga yaqinlashib bo‘lmaydi chunki juda issiqdir. Uning yuza qismi 3 ming gradusdan ham qaynoqdir. Bunga sabab, to‘xtovsiz otilib turuvchi vulqonlar, tinimsiz vodorod va geliy degan kimyoviy moddalarning yonishidan hosil bo‘lgan ulkan olovli yulduz hisoblanadi. Uning tortishish kuchi juda yuqori, shuning uchun uning atrofıdaga yer va boshqa sayyoralar aylanib yuradi. Ularni ham hozir sayohatimiz davomida bilib olamiz, endi tezroq quyoshdan uzoqlashamiz. Qarang yerimiz quyoshning oldida qanchalik kichik ko‘rinmoqda.

Jasur: — Quyoshga boshqa yaqinlasha olmas ekanmiz-da. Unday bo'lsa, endi kemamiz qaysi manzil tomon uchadi?

Jahongir: — Koinotdan qarasang, Yerimizdagi qit'alar xuddi katta dengizda suzib yurgan kichik orollarga o'xshab ko'rinadi.

Shunda gapga kenja Javdat aralashdi:

— Men kitobda o'qiganman, X asrda yashagan bobomiz Abu Rayhon Beruniy, o'sha vaqtda Yerning shar shaklida ekanligini aniqlaganlar. Hatto Yerning dastlabki modeli — globuslardan birini yaratganlar. Yerning qarama-qarshi tomonida ham quruqlik borligini Kolumb Amerikani kashf qilmasdan 500 yil ilgari bashorat qilganlar.

[24;156].

O'qituvchi: Juda ham to'g'ri aytding Javdat, bilasizmi koinotni o'rganadigan Astronomiya faniga Mirzo Ulug'bek, Muso Al-Xorazmiy bobokalonlarimiz ham ulkan hissa qo'shganlar. Mirzo Ulug'bek bobomiz bundan bir necha yuz yil oldin yulduzlarning aniq haritasi va ularning o'lchamlarini hisoblab chiqqanlar. Ularning hisob kitoblarini hozirgi aqilli kompyuterlar qayta hisoblab chiqib bobomiz bor yo'g'i bir necha daqiqaga adashganlarini, kopyuterlar bo'lmagan zamonlarda ular qanday qilib bunchalik aniq hisob kitoblarni qilishganini ko'rib dunyo olimlari lol qolmoqdalar. Bundan tashqari Xorazmiy bobomiz algebra faniga asos soldilar va algoritmni yaratdilar. Agar Xorazmiy bobomiz algoritmni yaratmaganlarida edi, balki hozir aqilli mashinalar, kompyuterlar, aqilli telefonlarning hech biri yaratilmagan bo'lar edi. Buning uchun ham butun dunyo olimlari bizning Xorazmiy bobomizdan minnatdor.

Jasur: — Sizlar Quyosh atrofida Yerdan boshqa yana 7 sayyora aylanishini bilasizlarmi?

O'qituvchi: o'quvchilar kosmanavtlarimizga bu sayyoralarning nomini kim sanab beradi? Qani quyoshga yaqin turgan eng yaqin sayyoraning nomi nima ekan?



O'quvchilar: Mrkuriy (javob bergan o'quvchi doskaga chiqib sayyoraning rasmini doskadan olib orqasidagi u haqidagi ma'lumotni olib o'qiydi)

Merkuriy quyosh tizimidagi eng kichkina sayyora, u quyoshga juda yaqinligi uchun judayam issiq, uning yerdagi kabi himoya qobig'i ya'ni atmosferasi yo'q. Merkuriy bobolarimiz Utorud deb nomlashgan.

O'qituvchi: Merkuriy judayam issiq sayyora ekan-a, unda insonlar yashay oladimi? Agar yashay olishsa ular qanday kiyim kiyishlari kerak?

O'quvchi: yo'q yashay olmaydi, agar yashasa issiqdan himoya qiluvchi kiyim keyish kerak.

O'qituvchi: barakalla, keying sayyoraning nomini kim aytadi?

O'quvchi: Venera, u quyosh sistemasidagi ikkinchi sayyoradir, uni qadimda bobolarimiz Zuhro deb nomlaganlar. U yerga eng yaqin joylashgan. Kun botarda va ton otadigan vaqtda ko'rinadi, shuning uchun uni "Tong yulduzi" deb ham nomlanadi.

O'qituvchi: Juda yaxshi, barakalla. Kemamiz keyingi sayyoraga ham yetib keldi. Bu sayyoraning nomi nima ekan?

O'quvchilar: Yer! U 3-sayyora.

O'qituvchi: Yerdagi hayot mavjudmi? Ha, chunki uning himoya qobig'i atmosferasi bor. U bizni quyoshning radiatsion nurlaridan himoya qiladi, agar u

bo'lmasa, allaqachon yerda hayot tugagan bo'lardi, o'quvchilar shuning uchun atmosferani ifloslantirmaslik, uni yemirilishiga olib kelmaslik zarur. Qarang yerimiz qanchalik chiroyli. Uning yo'ldoshi bormi?

O'quvchi: Ha, bor. Uning yo'ldoshi Oy.

O'qituvchi: barakalla, keying sayyoralarga sayohatimizni kelgusi darsimizda davom etamiz, keyingi sayyoralarda bizni bundan ham ko'p qiziqarli ma'lumotlar kutyapti? Bugun siz bilan juda jo'p ma'lumotlarni o'rgandik to'g'rimi?


Mavzuni mustahkamlash uchun quyidagi krossvord yechiladi.

O'qituvchi: Bolajonlar, mana bu krossvordimizda bugun biz urgangan barcha ma'lumotlar bor. Agar siz uni yechsangiz yulduzlar va osmon jisimlarini o'rganuvchi fanning nomini bilib olasiz.

1	A	M	E	R	I	K	A												
			2	A	T	M	O	S	F	E	R	A							
								T	E	R	3								
								R	A	K	E	T	A						
								A	L	-	X	O	R	A	Z	M	I	Y	
								N	I	Y									
6								O	B	U	S								
								M	E	R	K	U	R	I	Y				
								I	V	9									
								Y	E	R									
								A	11										

1. Beruniy bobomiz Kolumbdan 500 yil oldin bashorat qilgan qita nomi?
2. Yerning himoya qobig'i.
3. Aqilli mashina.
4. Uchar ot.
5. Algebra faniga asos slogan bobomiz.
6. Birinchi bo'lib globusni yaratgan alloma.
7. Yerning kichraytirilgan modeli.
8. Quyoshga eng yaqin joylashgan sayyora.
9. Quyoshdan tarqaladigan nurlar.
10. Quyosh tizimidagi 3-sayyora.
11. Zuhro nomi bilan ataladigan sayyora.

O'qituvchi: Mana bu turli geometrik shakllardan uchar raketalar yasang.



Darsga faol ishtirok etgan o'quvchilar baholanadi.

Uyga vazifa: Darslikdagi matnni o'qish, o'zining raketasini yasab kelish.

II Bob yuzasidan xulosalar

1. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari benihoya boy va rangbarangki, u xalqning ulkan tafakkuri, go‘zal xayoloti, beqiyos ijodkorligi, orzu-umidlari asosida asrlar davomida sayqallanib yuzaga kelganligi bizga yaxshi ma’lum. Shu sababdan bu go‘zal ijod namunalariidan foydalanmay turib o‘quvchilarda ko‘rgazmali-obrazli tafakkurni shakllantirish mumkin emasligi kundek ravshan. Bu borada biz kreativ metodlar va integrasiyalashgan darslarimiz yordamida xalq og‘zaki ijodi namunalari ertaklar, maqollar va topishmoqlardan keng foydalanishga harakat qildik.

2. O‘quvchilarda obrazli tafakkurni shakllantirish avvalambor kreativ fikrlashni shakllantirishdan boshalanadi. Shu boisdan zamonaviy kreativ metodlar orqali ularning ijodkorlik qobiliyatlarini, mustaqil fikr yuritishlari va ijodiy izlanish, yaratishga moyillikni rivojlantirish yo‘llari misollar tariqasida ko‘rsatib berildi.

3. Hozirgi kunda integrasiyalashgan ta’limning samarali tashkil etilishi yaxshi natijalar berganligi sohada ko‘p bora o‘z isbotini ko‘rsatgan. Ta’limni integrasiyalash, uni amaliyot bilan bog‘liq holda hayot bilan uyg‘unlikda tushuntirish alabatta ta’lim sifatini oshiribgina qolmay o‘uvchilarda mustahkam ko‘nikmalar ham hosil qiladi. Bularni inobatga olgan holda ko‘rgazmali-obrazli tafakkurni shakllantirishda integratsiyon yondashuv albatta katta ahamiyat kasb etadi chunki turli obrazlarni tafakkur qilishda turli fan va bilimlarga, tajribalarga murojaat qilish lozim bo‘ladi. Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari obrazli tafakkurini shakllantirishning texnologik asoslari sifatida tanlangan va amaliyotda qo‘llangan bu metodlar o‘z samarasini ko‘rsatganligini tadqiqotimizning tajriba sinov ishlari natijalarini tahlil qilganimizdan so‘ng yana bir karra amin bo‘lishimiz mumkin.

III BOB. O‘QUVCHILAR OBRAZLI TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH JARAYONINING PEDAGOGIK TAHLILI

2.3. Tajriba-sinov ishlarining tashkil etilishi va uning samaradorlik darajasi

Tadqiqotimizning ushbu bosqichida mavjud holat yuzasidan olgan ma'lumotlarimizni tahlil qilgan holda ish olib bordik. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining obrazli tafakkurini shakllantirishda bosqichma-bosqich va tizimli ravishda yonadashishga, dars davomida va darsdan tashqari vaqtlarda mikro darslar orqali o'z metodlarimizni amaliyotda qo'lladik. Har bir darsda uning maqsadi va mavzusidan kelib chiqib, xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalangan holda va kreativ metodlar orqali o'quvchilarining obrazli tafakkurini rivojlantiruvchi mashqlar tizimini amaliyotga tatbiq etdik. Bir necha darslarimizni integratsiyalashlagan holda tashkil etdik. Buning uchun biz tajriba sinfiga o'tiladigan xar bir fan darsida mazkur metodlardan foydalandik.

1. “Maqolni davom ettir”, “So‘zlardan maqol hosil qil”, “Fikringni maqol bilan ifodala”, rebuslardan maqollarni o‘qish kabi o‘yinlardan foydalanish orqali o‘quvchilarda obrazli tafakkur sifatlarini oshirish mumkin.

2. Topishmoqlar - bu janr o‘quvchi xayoloti va tafakkurini kengaytiruvchi juda samarali vositadir. O‘quvchilar bilan topishmoqlar topish o‘yinlari, o‘quvchilarning o‘zlari ham topishmoqlar o‘ylab topishi kabi o‘yinlar ham ularda obrazli tafakkur rivojlanishida xizmat qiladi. O‘quvchilarga quyidagicha topishmoq berildi:

- Shu yerda bor, o‘zi qora quti, bitta ko‘zi bor. (Televezor)
- O‘zi oppoq, yengil, o‘qishda har dam kerak, ranglilari ham bo‘ladi,...
(qog‘oz)

Shu kabi topilishi kerak bo'lgan predmetning belgisi turlicha ifodalanadi, topishda qiyinchilik kelsa uning eng muhim jihatlari aytib, shu tariqa murakkabdan, osonlashtirib borilaveriladi. Keyingi bosqichda o'quvchilar o'zlari shunday topishmoqlar aytishlari lozim.

3. “Kashf etmoq” (yoki “Agarda men...” metodi)- bu metod orqali o'quvchining kashfiyotchilik qobiliyati, fantaziya kuchi oshiriladi. O'quvchilarga “Agarda men...”, “Agarda...” kabi boshlang'ich qo'zg'atuvchi savol tashlab qo'yiladi. O'quvchilar o'zlarining tasavvurlariga suyanib jarayonni davom ettirishlari lozim bo'ladi. Masalan, “Agarda men ko'rinmas odam bo'lib qolsam...”, “Agarda yer yuzida elektr toki bo'lmasa...” kabi.

Biz ushbu metoddan o'qish darsi davomida foydalanildi, “Agarda men kashfiyotchi, olim bo'lsam...” tarzida savol tashlandi. O'qituvchi agar ularda shunday imkoniyat bo'lib qolsa, nimalarni yaratishga harakat qilgan bo'lardilar, shu yo'nalishda fikrlashga va ularning javoblari bir-birini takrorlamaslikka chorlaydi. O'quvchilar navbati bilan turib o'z fikrlarini bildirdilar. Original javoblar rag'batlantirildi.

4. Obrazli rasmlar-bu metodda obyekt hissiy-obrazli tadqiq qilinadi. O'quvchi tanlangan obyektни tahlil qilish yoki kuzatish natijasida uning o'z tasavvuridagi matnli yoki grafik ko'rinishdagi obrazini yaratishi talab qilinadi. Ushbu metoddan foydalanish uchun “Sehrli ohu” ertagi asosidagi



rasm asos qilib olindi. Undagi sehrli ohu tuyoqlarini yerga urganda oltin tangalar sochiladi. O'quvchilar shunday obrazlar topishlari lozimki ular yaratgan obraz ham qandaydir ajoyib, sehrli xususiyatga ega bo'lishi lozim.

5. Giperbolizatsiya-bu metod biron obyektни orttirib, kattalashtirib yoki aksincha kichraytirib, kamaytirib ko'rsatish orqali nomoyon bo'ladi. Misol uchun devlar, Gulliver, yoki “Pakana burunboy” ertagi qahramoni kabi obrazlar kattalashtirib,

“Jimjiloq”, “Dyumchaxon”, “No‘xatpolvon” kabi obrazlarning kichiklashtirib olinishini misol qilib olish mumkin.



6. Agglyutinatsiya– bu metod orqali o‘quvchilar o‘z tasavvurlari orqali turli, haqiqatdan yiroq bo‘lgan predmet yoki obrazlarni yaratishlari mumkin. Misol uchun sehrii jonzotlar, uchar qanotli otlar ham agglyutinatsiya mahsulidir. O‘quvchilar ham o‘zlari tasavvuridagi shunday obrazlarni yaratishi lozim. Masalan yarmi ayiq, yarmi odam qahramon (“Ayiq polvon” ertagi), yoki yarmi odam, yarmi ot (kentavr), yarmi qush, yarmi yo‘lbars – semrug‘ qushi kabilarni yaratishlari lozim. Uni xoh grafik tarzda, yoki matnli tarzda izohlashlari lozim bo‘ladi. O‘quvchilar yaratgan eng ajoyib, orginal, mantiqiy mos obrazlr yuqori baholanib, namuna sifatida ko‘rsatildi.



7. Aqliy hujum- Metod o‘quvchilarni mavzu xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, o‘z tasavvurlari, g‘oyalaridan ijobiy foydalanishga doir ko‘nikma, malakalarni hosil qilishga rag‘batlantiradi. U yordamida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha orginal (o‘ziga xos) yechimlarni topish imkoniyati tug‘iladi.

8. Turli fan nuqtai nazaridan o‘rganish - metodining mohiyati shundan iboratki, tanlangan obyekt o‘quvchilar tomonidan dars jarayonida yoki darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlagan holda turli fan nuqtai nazaridan tadqiq qilinadi. Bu evristik metodning maqsadi mavzuni o‘rganish jarayonida uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab yetish, o‘quvchilarda mustaqil izlanish, tanqidiy, tahliliy va mantiqiy fikrlashlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish, muammolarni, vaziyatlarni turli nuqtai nazardan muhokama qilish malakasini shakllantirishdan iborat. Bu metoddan turli fanlarda turlicha yondoshdik. Har bir o‘quvchi bajargan mashq, misol, masalaning yechimini bajarishda turli usullarda, yo‘nalishlardan foydalanishga jalb etildi. Masalan ona tili fanidan berilgan matndagi so‘zlarni so‘z yasovchi va so‘z bog‘lovchi qo‘shimchalar qatnashgan so‘zlarni ajratib, alohida-alohida yozish talab etilgan edi. O‘quvchilar mashqni bajarishda turli usullardan: ustun tarzda, tarmoqli, jadvalli hatto klaster, kungaboqar usulida bajarishdi. Matematika darsida ham rasm asosida masala tuzishda, karra-karrani yoddan aytishda boshqacha usullardan foydalanishdi. Namuna o‘qituvchi tomonidan ko‘rsatildi: masalan,

$2*2=4$	Yoki
$3*2=6$	$2*2=4$
$4*2=8$	$3*3=9$
$5*2=10$	$4*4=16$
$6*2=12\dots$	$5*5=25$ tarzida aytish.

Qanday usulda yoddan aytish o‘quvchining o‘zi o‘ylab topishi lozim.

9. “Ramziy ko‘rinish”- Ushbu metodda obrazli rasmlar metodiga o‘xshash, lekin farqli tomoni endi obraz emas belgi ya’ni, ramz asosida obraz yaratish lozim bo‘ladi. Obyekt o‘quvchilar tomonidan hissiy-ramziy nuqtai nazardan tadqiq qilinadi. Tanlangan obyekt va uning ramzi orasidagi bog‘lanishlar izlanadi, obyektning grafik, belgisi, so‘zlar orqali biror ko‘rinishda ramzini yaratish talab etilib, eng asosiysi, bu ramzni talqin etish, asoslab berish hisoblanadi.

Masalan,

Ochil dasturxon	Uning kuyi hammani raqsga tushirib yuboradi
-----------------	---

Ur to‘qmoq	U chizgan su‘ratlar jonlanadi
Qaynar xumcha	U dushmanlarni savalaydi
Sehri nay	U turli noz nematlar inom etadi
Sehri qalam	Undan oltin tangalar qaynab chiqadi

10. Everistik savollar- Bu metodda tanlangan hodisa yoki obyekt to‘g‘risida ma‘lumot to‘plash maqsadida 7 ta tayanch so‘roq so‘zlari asosida savollar tuzish talab etiladi.

Savollar ketma-ketligi quyidagicha:

1. Siz kimga o‘xshashni xohlaysiz va qahramoningiz kim?
2. Siz sevgan kinova multfilm qahramoni kim?
3. Qahramoningiz qaysi davlat tomonidan o‘ylab topilgan?
4. Sizga qaysi o‘zbek film va multfilmlari yoqadi?
5. Yoqsa nega?, Yoqmasa nega?
6. Sizningcha nega o‘z milliy qahramonlarimizga qiziqish kuchli emas?

Shu kabi berilgan savollar o‘quvchilarning bergan javoblariga qarab yana savollar tashlanib borilaverdi. Natijada muammoning tub mohiyati, ya‘ni, “Milliy qahramonlarimiz gavdalantirilgan filmlar saviyali va ta’sirchan etib ishlashda bizda hali chet eldagichalik tajriba mavjud emas. Buning uchun siz o‘quvchilar ijodkor va kashfiyotchi bo‘lishingiz, yurtimizdagi qanchadan qancha buyuk siymolarni dunyoga tanitadigan filmlar ishlovchi mutahasis bo‘lishingiz lozim” qabilida tugallandi.

7. Syujetli rasmlar metodi. Bu metodda o‘quvchilarga turli syujetli rasmlar namoyish etiladi. O‘quvchilar bu rasmlarning qismlarini o‘rganib voqealar ketma-ketligini to‘g‘ri topishlar kerak va voqealar rivojini so‘zlab berishlari lozim bo‘ladi.



1-syujetli rasmlar seriyalari asosida o'quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Rasmda nimalar tasvirlangan?
2. Qizaloq bajargan ishlarining ketma ketligini aniqlang.
 - a) Qizaloq pomidor ko'chatini ekdi.
 - b) Unga suv quyib parvarishladi.
 - c) Ko'chat gulladi.
 - d) Pomidorlar hosil soldi.
 - e) Qizaloq qip-qizil pomidorlarni ko'rib zavqlandi.
 - f) Mevalarni terib oldi.

3. Rasm asosida hikoya tuzing. O'quvchilar hikoya tuzish jarayonida uning badiyiligiga fikrlarning mantiqiy jihatdan uyg'unligiga e'tibor berish lozim



1-syujetli rasmlar

2-syujetli rasmlar seriyalari asosida o'quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Rasmda nimalar tasvirlangan?

2. Bo'ri butalar oarasida nimani ko'rib qoldi?

3. Bo'ri quyon deb

o'ylagan hayvon aslida kim ekan? 2-syujetli rasmlar

4. Rasm asosida hikoya tuzing va uni so'zlab bering.



3- syujetli rasmlar seriyalari asosida ishlashda o'quvchilarga quyidagi savollar beriladi:



3- syujetli rasmlar seriyalari

- 1-Rasmda kim va nimalar tasvirlangan?
- 2-Bola nima qilayotgan edi?
- 3-Uning yoniga qaysi hayvoncha keldi?
- 4-Bolakayning savatdagi olmalarini kim olib ketdi? Kabi savollar berish mumkin. Shuningdek rasmlar asosida hikoya tuzish topshiriq sifatida beriladi.

4- syujetli rasm seriyalari asosida ishlashda o'quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

- 1.Sizning kun tartibingiz qanday tuzilgan?
- 2.Rasmda qizaloqning kun davomida bajargan ishlari ketma ketligini aniqlang.
- 3.Mening kun tartib mavzusida hikoya tuzing.



4- syujetli rasm



5- syujetli rasm

5- syujetli rasm seriyalari asosida ishlashda o'quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Rasmda qaysi fasl tasvirlangan?
2. Bolalar nima qilishayotgan edi?
3. Qanday kutilmagam hodisa yuz berdi?
4. Rasm asosida hikoya tuzing va so'zlab bering.

Obrazli tafakkurni rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan maxsus metodlar yordamida o'tkazilgan mikrodarslardan keyin, yuqorida ko'rsatilgan metodika bo'yicha yana bir marta testlar o'tkazdik. Mavjud holatni aniqlashda foydalanilgan testlarning ba'zilarini o'zgartirishga qaror qildik, chunki tadqiqotimiz natijasi samarali bo'lishi uchun o'quvchilar oldin ko'rmagan va o'rganmagan metodlardan foydalanishga harakat qildik.

1. "Raven matritsasi"
2. "Guruhlarga bo'lib ko'r-chi" metodikasi.
3. "Rasm" metodikasi.

1. "Raven matritsasi"-[20; 138]. Ushbu metodika kichik maktab yoshidagi bolalarning ko'rgazmali-obrazli tafakkurini o'rganishga mo'ljallangan bo'lib, uning asosiy vazifalari mashhur Raven testidan olingan. U 10 ta asta-sekin murakkablashib boruvchi Raven matritsalaridan iborat. O'quvchilarga asta-sekin murakkablashib boruvchi 10 qismdan iborat vazifa beriladi. Masalan: Matritsada bo'laklarning joylashishidagi qonuniyatni topish va 1-2-illovalarda berilgan 8 ta rasm ichidan shu matritsaga mos keluvchi qismlarni topish kerak. (Matritsaning shu qismi ichida har xil rasmlari bor bayroqchalar sifatida berilgan).

Katta matritsa tuzilishini o'rganib, bayroqchalar ichidan o'quvchilar katta matritsaga joylashishi uchun mantiqan mos keluvchi qismni aniqlashi kerak. O'quvchilarning 10 ta topshiriqni bajarishi uchun 10 daqiqa vaqt beriladi. Vaqt tugagach, tadqiqotchi tajribani to'xtatadi va to'g'ri aniqlangan matritsalar soni hamda vazifani bajarishda to'plangan umumiy ball hisoblanadi, har bir to'g'ri bajarilgan matritsa uchun:

- | | |
|-----------------------|-----------------------|
| 10 ball - juda yuqori | 2-3 ball - quyi. |
| 8-9 ball - yuqori | 0-1 ball - juda past. |
| 4-7 ball - o'rtacha | |

2. «Guruhlarga bo'lib ko'r-chi» metodikasi.

Ushbu metodika boshlang'ich sinf o'quvchilarining obrazli so'z-mantiqli tafakkurini baholash uchun mo'ljallangan.

O'quvchiga 3-ilovadagi tasvirlar ko'rsatilib, quyidagi yo'riqnomaga beriladi:

«Diqqat bilan ushbu rasmdagi tasvirlarni ko‘rib chiq va ularni iloji boricha ko‘p guruhlariga bo‘l. Har bir guruhga, umumiy belgisi bir xil bo‘lgan figuralarni kirit va har bir figuraning nomini ayt hamda qanday belgilar asosida bo‘lib chiqqaningni tushuntirib ber». Topshiriqni bajarishga 3 daqiqa vaqt berilgan.

Natijalarni baholash.

10 ball - o‘quvchi hamma figuralarni 2 daqiqadan kam vaqtda guruhlariga bo‘lib chiqsa qo‘yiladi.

Bu figuralar guruhi quyidagicha: uchburchak, aylanalalar, kvadratlar, romblar, qizil figuralar, ko‘k figuralar, sariq figuralar, katta figuralar, kichik figuralar;

8 - 9 -ball o‘quvchi hamma figuralarni 2 daqiqadan 2,5 daqiqagacha bo‘lib chiqsa qo‘yiladi;

6 - 7 ball- o‘quvchi hamma figuralarni 2,5 daqiqadan 3,0 daqiqagacha bo‘lib chiqsa qo‘yiladi;

4 - 5 ball - 3 daqiqa mobaynida o‘quvchi 5 dan 7 tagacha guruhga bo‘lib chiqsa qo‘yiladi;

2- 3 ball - 3daqiqa mobaynida bola 2 dan 3 tagacha guruhga bo‘lib chiqsa qo‘yiladi;

0-1 ball - 3 daqiqa mobaynida bola lta guruhdan ko‘p guruhga bo‘la olmasa qo‘yiladi.

Taraqqiyot darajasi haqida xulosa “Raven matritsasi” singarichiqariladi.

3. «Rasm» metodikasi

Tadqiqotni o‘tkazish uchun qog‘oz va flomaster (kamida 6 xil rangda) kerak bo‘ladi. O‘quvchilarga ana shulardan foydalanib, biror-bir rasmni o‘ylab, chizish topshirig‘i beriladi. Buning uchun 5 daqiqa vaqt belgilanadi.

Tadqiqot natijalari tahlili quyidagi jadval yordamida amalga oshiriladi.

№	O‘quvchi xayolining baholanayotgan belgilari	Ushbu belgilarning balldagi bahosi
1	Xayol jarayoning tezligi	0
2	Obrazning o‘ziga xosligi, orginalligi	2

3	Fantaziyaning boyligi	1
4	Obrzalarning chuqur ishlanganligi	3
5	Obrazlarning hissiy ta'sirchanligi	1

1-jadval

Rivojlanish darajasi haqida xulosalar

10 - ball - juda yuqori

2-3 – ball - quyi

8-9 ball - yuqori

0-1 ball - juda past

4-7 ball - o'rtacha

1. Tajriba sinov har bir o'quvchi bilan yakka holda o'tkazildi. Har bir metodika sharti o'quvchiga tushuntiriladi. Avval, misol tariqasida tadqiqotchi bir ikkita topshiriqni o'zi bajarib ko'rsatishi kerak (1 va 2 metodikalarni). Agar o'quvchi topshiriqni darhol tushunib ololmasa, bu jarayonni qayta takrorlash lozim. Topshiriqni bajargan o'quvchidan uni qanday bajarganligini, nimalarga ahamiyat berganligini, javobini asoslab berishni so'rash lozim. "Rasm" metodikasida esa tasvirlangan obyektga biron noaniqlik bo'lsa uni shrhlashni so'rash lozim. Shuningdek, o'quvchi rasm orqali nimani tasvirlamoqchi bo'ldi-yu, ish so'ngida u tassavur qilgan obraz yaratildimi, shuni ham o'quvchilardan so'rash maqsadga muvofiqdir. Har bir o'quvchining natijasi 1-jadval asosida ballar asosida hisoblanib, foiz ko'rsatkichida 3-4- jadvallarda ko'rsatiladi.

1. "Raven matritsasi"-tanlov va asoslash.

2. "Guruhlariga bo'lib ko'r-chi" metodikasi – tanlov va asoslash.

3. "Rasm" metodikasi- 5 ta parametr asosida.

Ularning natijalari 5-6-jadvallarda keltirilgan.


Tajriba ishidan keying natijalar tahlili natijalari:

№	“Raven matritsasi”		“Guruhlarga bo‘lib ko‘rchi” metodikasi		“Rasm” metodikasi					
	tanlov	asoslash	tanlov	asoslash	Xayol tezligi	Obrazning originalligi	Fantaziyaning boyligi	Obrazlarning chuqur ishlanganligi	Obrazlarning hissiy taʼsirchanligi	Umumiy foiz
1	50%	10%	20%	10%	10%	10	10%	20%	0	60%
2	50%	30%	10%	30%	20%	10	20%	10%	10%	60%
3	50%	10%	20%	10%	10%	30%	50%	20%	0	70%
4	50%	30%	10%	30%	20%	10%	50%	20%	0	60%
5	75%	30%	20%	10%	20%	10%	75%	10%	20%	40%
6	50%	10%	20%	10%	10%	10%	50%	10%	20%	60%
7	50%	30%	30%	20%	10%	10%	50%	20%	10%	70%
8	50%	10%	30%	20%	10%	30%	10%	20%	10%	70%
9	50%	10%	20%	10%	10%	10%	20%	10%	20%	60%
10	50%	30%	10%	30%	20%	30%	20%	10%	20%	70%
11	75%	30%	20%	10%	20%	10%	20%	10%	10%	60%
12	50%	10%	20%	10%	10%	10%	20%	30%	20%	60%
13	50%	30%	30%	20%	10%	30%	20%	10%	30%	50%
14	50%	10%	30%	20%	10%	10%	20%	10%	10%	70%
15	50%	30%	30%	20%	10%	30%	10%	30%	20%	70%
16	30%	10%	20%	10%	10%	30%	20%	10%	20%	60%
17	10%	20%	10%	20%	10%	10%	20%	10%	10%	40%
18	30%	20%	10%	20%	10%	30%	30%	20%	10%	60%
19	10%	20%	10%	10%	20%	10%	30%	20%	10%	50%
20	10%	20%	30%	20%	10%	30%	30%	20%	10%	60%
21	30%	20%	10%	30%	20%	10%	30%	20%	10%	40%
22	10%	20%	10%	10%	30%	20%	30%	20%	10%	60%
23	30%	10%	30%	20%	10%	30%	10%	20%	10%	60%
24	30%	20%	10%	20%	10%	10%	20%	10%	20%	70%
25	10%	20%	10%	10%	10%	30%	20%	10%	20%	60%
26	50%	25%	75%	50%	10%	30%	20%	10%	20%	90%
27	75%	50%	30%	20%	30%	30%	20%	10%	10%	100%
28	75%	50%	20%	10%	10%	30%	20%	10%	20%	90%
29	50%	25%	10%	20%	10%	30%	20%	10%	20%	90%
30	75%	50%	10%	20%	30%	30%	20%	10%	10%	100%
31	75%	50%	10%	10%	10%	30%	20%	10%	20%	90%
O‘rtacha ko‘rsatkich	67%	36%	68%	42%	21.6%	9.8	10.8	15.4	4.6	61.6


Tajriba sinfi4-jadval

№	“Raven matritsasi”		“Guruhlarga bo‘lib ko‘r-chi” metodikasi		“Rasm” metodikasi					
	tanlov	asoslash	tanlov	asoslash	Xayol tezligi	Obrazning orginalligi	Fantaziyaning boyligi	Obrzalarning chuqur ishlanganligi	Obrzalarning hissiy ta’ sirchanligi	
1	100%	75%	100%	75%	30%	10%	20%	10%	10%	80%
2	75%	50%	75%	50%	10%	20%	10%	20%	10%	70%
3	75%	50%	75%	50%	30%	20%	10%	20%	10%	90%
4	100%	50%	100%	100%	10%	20%	10%	10%	20%	70%
5	75%	50%	75%	50%	10%	20%	30%	20%	10%	100%
6	100%	75%	100%	75%	30%	20%	10%	30%	20%	100%
7	75%	50%	75%	50%	10%	20%	10%	10%	30%	80%
8	100%	75%	75%	50%	30%	10%	30%	20%	10%	100%
9	75%	50%	100%	75%	30%	20%	10%	20%	10%	90%
10	50%	25%	75%	50%	10%	20%	10%	10%	10%	60%
11	100%	75%	75%	50%	30%	30%	20%	10%	10%	100%
12	50%	25%	75%	50%	10%	30%	20%	10%	20%	90%
13	75%	50%	75%	50%	30%	30%	20%	10%	10%	100%
14	75%	50%	75%	50%	10%	30%	20%	10%	20%	90%
15	75%	50%	75%	50%	20%	30%	20%	10%	20%	90%
16	50%	50%	75%	50%	20%	30%	20%	10%	20%	100%
17	100%	100%	100%	100%	10%	30%	20%	10%	20%	90%
18	50%	25%	75%	50%	10%	20%	10%	10%	10%	60%
19	75%	50%	100%	50%	30%	30%	20%	10%	10%	100%
20	75%	50%	75%	50%	10%	30%	20%	10%	20%	60%
21	100%	75%	100%	75%	30%	10%	20%	10%	20%	90%
22	75%	50%	75%	50%	20%	10%	10%	20%	30%	90%
23	75%	50%	50%	25%	20%	30%	20%	10%	20%	100%
24	75%	50%	75%	50%	10%	20%	10%	10%	10%	60%
25	100%	75%	100%	75%	30%	10%	20%	10%	20%	90%
26	50%	25%	50%	25%	10%	20%	10%	10%	10%	60%
27	75%	50%	75%	50%	30%	10%	20%	10%	10%	80%
28	50%	25%	75%	50%	10%	30%	20%	10%	20%	90%
29	75%	50%	75%	50%	30%	30%	20%	10%	10%	100%
30	75%	50%	75%	50%	10%	30%	20%	10%	20%	90%
O‘rtacha ko‘rsatkich	80%	60.6%	87.4%	74.6%	32.6	18	16.4	19.3	10.8	97.1

Shundayqilib, savollarga javobning maksimal usuli 100% ga minimum – 0% gavaboshqako‘rsatkichlar parametrlarini aniqlash uchun foizlarda ifodalandi. Tadqiqot natijasini yanada aniqroq ko‘rish uchun diagrammalarda tasvirlaymiz.



Tajribadan oldingi va tajribadan keyingi holat natijalari diagrammasi:



Yuqoridagi diagrammalardan kelib chiqqan holda, obrazli tafakkurni rivojlantiruvchi xalq ogʻzaki ijodi namunalari va kreativ metodlardan foydalanish natijasida oʻquvchilarning obrazli tafakkurini rivojlanishining yuqori darajasiga erishish mumkinligi haqida xulosa chiqarishimiz mumkin.

III Bob yuzasidan xulosalar

1. Oʻrganilgan va tahlil qilingan nazariy va amaliy maʼlumotlar shundan dalolat beradiki, boshlangʻich sinf oʻquvchilar obrazli tafakkurini shakllantirishda xalq ogʻzaki ijodi yaʼni ertak, maqol va topishmoqlar samarali vosita deb topildi. Chunki olingan natijalar buning dalilidir.

2. Boshlangʻich sinf oʻquvchilar obrazli tafakkurini oʻstirishda asosiy eʼtiborni ular bilan tashkil etiladigan integrasiyalashgan darslarga qaratish lozimligi aniqlandi. Chunki, aynan integrasiyalashgan darslarda boshlangʻich sinf oʻquvchilarning tevarak-atrof, tabiat va undagi rang barang obrazlarga boʻlgan tasavvuri va munosabati shakllantirib boriladi.

3. Dars jarayonida innovatsion texnologiyalar, kreativ metodlar dan foydalanish boshlangʻich sinf oʻquvchilar dunyoqarashini shakllantirishning muhim omili ekanligi aniqlandi.

4. Boshlangʻich sinf oʻquvchilar obrazli tafakkurni shakllantirishda koʻrgazmalilikning ahamiyatini inobatga olgan holda, Respublikamizdagi har bir maktablarni multimediya vositalari bilan jihozlash ehtiyoji yuqori ekanligi tajriba-sinov jarayonida namoyon boʻldi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilari obrazli tafakkurini shakllantirish bugungi ta'lim jarayoni oldida turgan dolzarb muammolardan biridir. Negaki, tafakkuri yuksak darajada shakllangan yoshlarga yurtimizni dunyo miqyosiga olib chiqadi. Tahlil etilgan asosiy adabiyotlar va kuzatish ishlari bu boradagi fikrimizni tasdiqlash imkonini yaratdi.

2. Tafakkur jarayonlari, uni shakllanish bosqichlarini o'rganish orqali tafakkur operatsiyalari, xususiyatlari, turlarini psixologik jihatdan tatbiq qilib, uning pedagogik xususiyatlarini o'rganish va tatbiq qilish, o'quvchilarda ko'rgazmali-obrazli tafakkurni shakllantirishning xususiyatlari va ahamiyati o'rganildi.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida obrazli tafakkurni shakllanganligining mavjud holati yuzasidan olib borgan tadqiqotlar natijasi o'laroq shunday xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining obrazli tafakkurini yuqori darajada deb bo'lmaydi. Chunki, o'quvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlashi, qobilyatini nomoyon qilishda bir qancha muammolar aniqlandi. Bular:

- o'qituvchilarning bolalarning ijodiy ishlanmalari va shaxsiy fikrlari bilan qiziqmaganligi, ularni qo'llab-quvvatlamaganligi;
- o'quvchilarning o'qituvchi tomonidan bir xil qolipga solib qo'yilganligi;
- mustaqil ishlash uchun berilgan topshiriqlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashlari uchun xizmat qilmaganligi;
- kreativ fikrlash va ijodiy yondashuvni oshiruvchi metodlarning qo'llanilmaganligi, umuman olganda o'quvchilarda bu sifatlarni shakllantirishning ahamiyati haqida o'qituvchining yetarli bilimga ega emasligi kuzatildi.

4. O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari benihoya boy va rangbarangki, u xalqning ulkan tafakkuri, go'zal xayoloti, beqiyos ijodkorligi, orzu-umidlari asosida asrlar davomida sayqallanib yuzaga kelganligi bizga yaxshi ma'lum. Shu sababdan bu go'zal ijod namunalaridan foydalanmay turib o'quvchilarda

ko'rgazmali-obrazli tafakkurni shakllantirish mumkin emasligi kundek ravshan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining obrazli tafakkurini shakllantirishda xalq og'zaki ijodining o'rni katta ekanligini inobatga olgan holda undan dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish imkoniyati mavjud.

5. O'quvchilarda obrazli tafakkurni shakllantirish avvalambor kreativ fikrlashni shakllantirishdan boshalanadi. Shu boisdan zamonaviy kreativ metodlar orqali ularning ijodkorlik qobiliyatlarini, mustaqil fikr yuritishlari va ijodiy izlanish yaratishga moyillikni rivojlantirish yo'llari ko'rsatib berildi. O'quvchi tafakkurini shakllantirishda kreativ metodlardan foydalanish bilim berishning eng samarali usuli ekanligi tashkil etgan mikro darslarimiz jarayonida kuzatildi.

6. Hozirgi kunda integrasiyalashgan ta'limning samarali tashkil etilishi yaxshi natijalar berganligi sohada ko'p bora o'z isbotini ko'rsatgan. Ta'limni integrasiyalash, uni amaliyot bilan bog'liq holda hayot bilan uyg'unlikda tushuntirish alabatta ta'lim sifatini oshiribgina qolmay o'uvchilarda mustahkam ko'nikmalar ham hosil qiladi. Shuningdek, ko'rgazmali-obrazli tafakkurni shakllantirishdaturli fan va bilimlarga, tajribalarga murojaat qilish lozim bo'ladi. Tadqiqot ishining amaliyotda qo'llangan bu metodlar o'z samarasini ko'rsatganligini tajriba sinov ishlari natijalarini tahlilida o'z isbotini topdi.

Ushbu xulosalar asosida quyidagi tavsiyalarni keltirib o'tamiz:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilari obrazli tafakkurini shakllantirish tizimini keng qamrovli tashkil etish, jumladan, bunda oila, MTM, ommaviy axborot vositalari, maktabning rolini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

2. Maktablarda iqtidorli o'quvchilar bilan alohida ishlashni yo'lga qo'yish, ayniqsa, to'garaklar faoliyatini kuchaytirish va unga o'quvchilarni jalb qilish talab etiladi.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilari obrazli tafakkurini shakllantirishda chet el tajribasidan foydalanish lozim bo'ladi. Chunki, bu borada tajriba almashish davr talabidir.

4. Yosh avlodning obrazli tafakkurini shakllantirishda maktab o'chituvchilari asosiy kuch bo'lib, ularni bu boradagi psixologik, pedagogik bilimlar bilan qurollantirish ehtiyoji mavjud.

5. Boshlang'ich sinf o'quvchilar obrazli tafakkurini o'stirishda asosiy e'tiborni ular bilan tashkil etiladigan integrasiyalashgan darslarga qaratish lozim. Aynan integrasiyalashgan darslarda xalq og'zaki ijodi va kreativ metodlardan foydalanib o'quvchilarning tevarak-atrof, tabiat va undagi rang barang obrazlarga bo'lgan tasavvuri va munosabati shakllantirish imkoniyati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:



1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Barkamol avlod orzusi. –T.: O‘zbekiston, 1998-y. – B 34, 20-29- betlar.
2. Mirziyoyev Sh. “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi”.2017-y. 7-fevral, PF-4947 sonli qarori.
3. Mirziyoyev Sh. “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 2017-y. 30-sentyabr, 5198 sonli farmoni.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.:Ma’naviyat, 2008-y. – B171, 140-bet.
5. Ahmedova M. umumiy tahrir ostida. Falsafa. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. – T.: 2006-y.– B 506, 495bet.
6. Baratov Sh. O‘quvchi shaxsini o‘rganish usullari. – T.: O‘qituvchi, 1995-y. – B 418,236-bet.
7. Berdieva O. Ta’lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar // Xalq ta’limi. – Toshkent. – 2003-y.–№1 . – B 225,104-bet.
8. G‘afforova T. va b.1-sinf O‘qish darsligi. – T.: Sharq. 2015-y.– B245, 58-70-betlar.
9. G‘afforova T.va b. 2- sinf O‘qish darsligi. – T.: Sharq. 2015-y. – B312,101-bet.
- 10.G‘oziyev E. Umumiy psixologiya.– T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2010-y.– B542, 174- bet.
- 11.Ibragimov X.I. Pedagogik psixologiya: pedagogika va psixologiya. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009-y. – B382, 20-38 -betlar.
- 12.Imomov I., Mirzayev K., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi.–T.: O‘qituvchi. 1990-y.– B324, 43-56- betlar
- 13.Inoyatov U.I., Muslimov N.A. va boshqalar. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. Metodik qo‘llanma. – T.: 2012 – B442, 140-141-betlar.









- 14.Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya.– T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2015-y.– B358, 186-227-betlar.
- 15.Ivanov, P.I. Umumiy psixologiya: Darslik. O‘zROO‘MTV. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008-y.– B214,15-20-betlar.
- 16.Karimova V.M. Psixologiya. O‘quv qo‘llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, «O‘zAJBNT» markazi, 2002-y.– B308, 205-bet.
- 17.Karimova V.M., Hayitov O.E., Akramova F.A., Lutfullayeva N.X. Umumiy psixologiya. Darslik. – T.: TDIU, 2010-y.– B289, 81-96-betlar.
- 18.Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojibayeva R.N. Mustaqil fikrlash. – T.: Sharq, 2000-y.– B224, 111-bet.
- 19.Matchon S.va b. 4-sinf O‘qish darsligi.– T.: “Yangiyo‘l poligraf servis” nashriyoti, 2015-y. 51-85-betlar.
- 20.Nishanova Z., Qurbonova Z., Abdiev S.Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. – T.: Tafakkur bo‘stoni, 2011-y.– B 258, 138-142-betlar.
- 21.O‘zbek tilining izohli lug‘ati IV jild.–T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2008-y.– B658, 13-bet.
- 22.O‘zbekiston milliy insiklopediyasi VIII jild.–T.: Davlat ilmiy nashriyoti 2008-y.– B774, 299 bet.
23. Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M., Xoliqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi /Metodik qo‘llanma.– T.: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013-y.– B312,108-bet.
- 24.Umarova M., Hamroqulova X.,Tojiboyeva R. 3-sinf O‘qish kitobi. – T.: O‘qituvchi, 2016-y.– B248, 156-bet.
- 25.Usmonboeva M., Irgashova M., Xo‘janazarova N. Pedagogik mahorat. Metodik qo‘llanma. T.: O‘qituvchi, 2012-y.– B318, 14-bet.
- 26.Yo‘ldoshev J.G‘. Yangi pedagogik texnologiya: yo‘nalishlar, muammolar, yechimlar №4.// Xalq ta’limi.T.: 1999.– B58, 4-11-betlar.
- 27.Безруких М.М. Ступеньки к школе: Кн. для педагогов и родителей.-2-е изд., стереотип. М.: Дрофа, 2001. 256с.

28. Беспалко В. П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: ИРПО, 1996. – 336 с.
29. Выготский Л. С. Вопросы детской психологии. – СПб., 2006. – 245 с.
30. Гальперин П. Я., Запорожец А. В., Карпова С. Н. Актуальные проблемы возрастной психологии. М., 2007. – 315 с.
31. Дубровина И. В. Рабочая книга школьного психолога. – М., 2003. – 422 с.
32. Дубровина И. В., Андреева А. А. и др. Младший школьник: развитие познавательных способностей. М., 2003. – 208 с.
33. Маклаков А. Г. Общая психология: Учебник. – СПб.: Питер, 2010. – 36-51 с.
34. Мухина В. С. Возрастная психология - М., 2003. – 315 с.
35. Немов Р. С. Общая психология. Учебник. – СПб.: Питер, 2009. – 32-39 с.
36. Павлова Ю. А. Психолого-педагогические условия формирования умений и навыков. М., 2008. – 216 с.
37. Фридман Л. М., Кулагина И. Й. Психологический справочник учителя. Минск, 2001. – 298 с.
38. Гиппенрейтер Й. Б. Хрестоматия по общей психологии. Психология мышления // Под ред. - М., 2004. – 371 с.
39. Якиманская И. С. Основные направления исследований образного мышления. - Минск, 2004. – 162 с.
40. www.vak.ed.gov.ru
41. <http://www.routledge.com/books/Learning-to-Teach-in-the-Primary-School-ISBN9780415359283>.
42. www.sagepub.co.uk/education


ILOVALAR

1-ilova







?




1.




2.



3.




4.




5.





Задачно 1



Задачно 2



Задачно 3



3-ilova

